

“Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi — 2019”

Yuzy yorug', qaddi baland murabbiy

Muallim va shifokorning xizmati bir-biriga o'xshaydi. Shifokor inson vujudini darddan xalos etadi. O'qituvchi esa ruhni poklaydi, aqlni charxlaydi.

10-bet

Ta'kid

Majlis — ustoz ko'zgusi

Uzrimni aytib xayrlasharkanman, izlanuvchan o'qituvchi bolamga ta'lim berayotganidan ko'nglim to'ldi. Muallima tavsiyalaridan bu safar bebahra qoldim. O'tgan yilgi ota-onalar majlisi xayolimda jonlandi.

11-bet

Tarixdagi bugun

Oktabrning ilk haftasidagi hodisalar

2000-yil — o'zbekistonlik bokschi Muhammadqodir Abdullayev boks bo'yicha XXVII yozgi Olimpiada chempioni bo'ldi.

13-bet

Kuch — bilim va tafakkurda

Marifat

1931-yildan chiqqan boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2019-yil 29-sentabr, yakshanba № 75 (9244)

Xalq ziyolilari gazetasi



Muallimlikdan Qahramonlikkacha

5-bet

1-oktabr — O'qituvchi va murabbiylar kuni

O'ZBEKISTON O'QITUVCHI VA MURABBIYLARIGA BAYRAM TABRIGI

Muhtaram ustoz va murabbiylar!

Avvalo, siz, azizlarni, ta'lim-tarbiya sohasida mehnat qilayotgan barcha pedagog xodimlarni O'qituvchi va murabbiylar kuni bilan chin qalbindan tabriklab, eng ezgu tilaklarimni izhor etaman.

Ushbu qutlug' ayyomda barchamiz bizga ilm o'rgatgan, hayot sabog'ini bergan jonkuyar, fidoyi o'qituvchi va domlalarimizga chuqur hurmat bajo keltirib, chin dildan ta'zim qilamiz.

Haqiqatan ham, o'zining ko'z nuri, qalb qo'ri, butun borlig'ini yosh avlod tarbiyasiga baxsh etadigan o'qituvchi va murabbiylar mehnati, jasorati har qanday yuksak baholarga munosibdir.

Bu haqda fikr yuritir ekanmiz, ulug' ma'rifatarparvar bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiyning: “Avlodlarimizga faqat bugunning emas, kelgusi zamonning ilmini o'rgatish”, degan so'zlari beixtiyor yodimizga tushadi.

Chindan ham, dunyo miqyosida raqobat yanada kuchayib boradigan, o'ta murakkab bir davrda yashaydigan bolalarimizni kelajakka tayyorlab, sog'lom va barkamol insonlar etib voyaga yetkazish ta'lim-tarbiya sohasi, o'qituvchi mehnatining tub mohiyatini tashkil etadi.

Ana shu o'tkir haqiqatni hisobga olib, biz ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlarni davlat siyosatining eng muhim va ustuvor yo'nalishi darajasiga ko'tardik.

O'tgan qisqa davrda maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, maktab ta'limida 11 yillik tizimga o'tish, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarni optimallashtirish, nodavlat ta'lim xizmati ko'rsatish bo'yicha keng ko'lami ishlarni amalga oshirdik.

Bugungi kunda sizlarning, butun el-yurtimizning qizg'in qo'llab-quvvatlashi bilan maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy maqsadga, umumxalq harakatiga aylanib bormoqda.

Buyuk allomalarimiz, atoqli shoir va adiblarimiz nomi bilan ataladigan ijod va tabiiy fanlarga ixtisoslashtirilgan maktablar, “Temurbeklar maktablari”, Prezident maktablari kabi mutlaqo yangi namunadagi zamonaviy va innovatsion ta'lim maskanlari ayni shu maqsadga xizmat qiladi.

(Davomi 2-betda.)

O'qituvchiga “Spark” berildi

Alisher Navoiy nomidagi davlat akademik katta teatrida O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashi tomonidan o'tkazilgan “Ustozlar — kasaba uyushmalari e'zozida” tanlovining respublika bosqichi g'oliblarini taqdirlashga bag'ishlangan tantanali marosim bo'lib o'tdi.



Tadbirni O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi raisi Qudratilla Rafiqov ochib, barcha ustozlarni 1-oktabr — O'qituvchi va murabbiylar kuni bilan qutladi. Shuningdek, Prezidentimiz rahnamoligida mamlakatimizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, erishilayotgan yutuqlarga to'xtalib, kasaba uyushmalari tomonidan soha xodimlarini qo'llab-quvvatlash, ular uchun munosib mehnat sharoitini yaratish borasida bajarilayotgan ishlar to'g'risida so'z yuritdi.

Tanlov nizomiga muvofiq, bellashuvda umum-

ta'lim maktablarida kamida 20 yillik pedagogik stajga ega, boshlang'ich kasaba uyushma qo'mitasi raisi sifatida esa kamida 10 yildan beri ishlab kelayotgan 1 ming 135 nafar o'qituvchi ishtirok etdi. Baholashda ishtirokchilarning kasbiy mahorati, o'g'il-qizlarning ma'naviy va intellektual olamini boyitish hamda kasaba uyushma qo'mitasi faoliyatini takomillashtirish, soha xodimlari ijtimoiy himoyasini kuchaytirish borasidagi ishlari alohida e'tibor qaratildi.

7-bet

O'ZBEKISTON O'QITUVCHI VA MURABBIYLARIGA BAYRAM TABRIGI

(Davomi. Boshi 1-betda.)

Bu borada umumta'lim maktablari tizimini rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Buning tasdig'ini so'nggi ikki yilda 238 ta yangi maktab barpo etilganida ham ko'rish mumkin. Holbuki, 2010—2016-yillarda bu sohaga yetarli e'tibor berilmagani tufayli 99 ta maktab yopilgan edi.

Mazkur sohani rivojlantirish uchun ajratilayotgan budget mablag'lari hajmi ham ortib bormoqda. Jumladan, joriy yilda maktablarga 2017-yilga nisbatan 81 foizdan ziyod mablag' ajratildi.

Yurtimizda bog'cha, maktab va oliy ta'lim tizimida ishlayotgan tarbiyachilar, o'qituvchi va domlalar mehnatini munosib qadrlash, ularning ish haqini, jamiyatdagi nufuzini oshirish bo'yicha muhim qadamlar qo'yilmoqda.

Soha rivojiga bo'lgan ana shunday e'tibor maktablarda o'quv-tarbiya jarayonlarini sifat jihatidan o'zgartirishga, o'qituvchilar tarkibini yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Biz ta'lim-tarbiya masalasiga kompleks yondashgan holda, bog'cha ta'limi bilan birga oliy ta'lim tizimini ham uzviy rivojlantirishga alohida e'tibor bermoqdamiz.

Shu maqsadda mamlakatimizda maktabgacha ta'lim hamda oliy ta'limni rivojlantirish dasturlari qabul qilindi va shu asosda tub islohotlar amalga oshirilmogda.

Xususan, keyingi ikki yilda mamlakatimizda 35 ta, jumladan, 13 ta xorijiy oliy o'quv yurti tashkil etildi. Yuzdan ortiq yangi bakalavriyat ta'lim yo'nalishlari hamda 94 ta magistratura mutaxas-

sisligi bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi.

Ana shunday chora-tadbirlar natijasida yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi uch yil burungi 9 foizdan 20 foizga oshdi. Biz yaqin kelajakda bu ko'rsatkichni 25 foizga yetkazishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganimiz.

Yaratilayotgan imkoniyatlar tufayli O'zbekiston yoshlari turli sohalarda o'z bilim va salohiyatini namoyon etib, Vatanimiz shuhratini butun dunyoga tarannum etmoqda.

Kuni kecha Rossianing Yekaterinburg shahrida dunyoning 80 ga yaqin mamlakatidan mohir sportchilar ishtirok etgan boks bo'yicha jahon chempionatida milliy jamoamiz vakillari yuksak azm-u shijoat va mahorat namunasini ko'rsatib, birinchi o'rinni egallagan barchamizni quvontirib, g'urur va iftixor bag'ishlaydi.

Bunday ulkan yutuqlarni biz avvalo sizlar kabi fidoyi ustoz-murabbiylarning fidokorona mehnati natijasi sifatida qabul qilamiz.

Qadrlir yurtdoshlar!

Barchamiz yaxshi tushunamizki, bugungi shiddatli zamon barcha sohalarda qatorida ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish bo'yicha ham oldimizga g'oyat muhim va dolzarb vazifalarni qo'ymoqda.

Albatta, yoshlarimizning bilim olishlari uchun barcha sharoitlarni yaratish, o'quv binolarini qurish, ularni zamonaviy jihozlash mumkin. Lekin farzandlarimizga yuksak mezonlar asosida ta'lim-tarbiya beradigan, yangicha, innovatsion fikrlaydigan muallim va o'qituvchilarni tayyorlash — bu eng og'ir vazifa bo'lib,

juda katta mehnat va mas'uliyatni talab etadi.

Shu ma'noda, **bugungi kun o'qituvchisi universal mutaxassis, ham o'rganuvchi, ham o'rganuvchi bo'lishi, ya'ni o'z ustida tinimsiz ishlashi, doimo izlanib yashashi kerak.**

Eng muhimi, o'qituvchi chinakam vatanparvar inson bo'lishi zarur. Qalbida o'z kasbiga, Vataniqa mehri va sadoqat kuchli bo'lgan o'qituvchigina haqiqiy vatanparvar shaxsni tarbiyalay oladi.

Bizning barcha sa'y-harakatlarimiz "**O'zbekistonda eng obro'li inson muallim bo'lishi kerak**" degan g'oyani amalga oshirishga qaratilmoqda. Buning uchun davlat va jamiyat tomonidan qancha mablag', resurs va imkoniyatlar zarur bo'lsa, barchasini safarbar etamiz.

Maktablarda xorijiy tillarni, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'rgatishni takomillashtirish, oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida boshqaruvni isloh qilish, yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha belgilangan chora-tadbirlarni samarali amalga oshirishimiz lozim.

Professional ta'lim sohasida bugungi mehnat bozori va xalqaro standartlarga to'la mos keladigan butunlay yangi tizimga o'tishni jadallashtirishimiz kerak.

Ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi, o'qitish sifati va pedagog xodimlarning bilim va malakasini oshirishga qaratilgan "**Zamonaviy maktab**" davlat dasturini amalga oshirish doimiy e'tiborimiz markazida bo'ladi.

Barchamizga ayonki, bugungi kun-

da yon-atrofimizda yoshlarning qalbi va ongini zaharlab, ularni to'g'ri yo'ldan og'dirishga qaratilgan xavf-xatarlar tobora kuchayib bormoqda. Bunday mafkuraviy xurujlarga qarshi milliy g'oya asosida barchamiz birgalikda kurashmog'imiz, **oila, maktab va mahalla hamkorligini mustahkamlashimiz zarur.**

Ayniqsa, bu vazifa barcha bo'g'indagi rahbarlar, yoshlar, xotin-qizlar, nuroniylar tashkilotlari, ijodkor ziyolilarimiz, diniy ulamolalar, huquq-tartibot idoralari xodimlari, butun jamiyatimiz uchun vijdon ishiga aylanishi kerak.

Aziz va muhtaram ustozlar!

Bugun ta'lim-tarbiya sohasida, hurmatli o'qituvchi va murabbiylarimiz, farzandlarimiz hayotida yangi davr boshlanmoqda. Bu davrni yanada chuqur ma'no-mazmun bilan to'ldirib, **milliy yuksalishga erishish** faqat va faqat o'zimizga, shu yo'lda hamjihatlik bilan qattiq mehnat qilishimizga bog'liq.

Biz xalqimizning eng katta boyligini — millionlab farzandlarimiz, jondan aziz o'g'il-qizlarimizning taqdirini, O'zbekiston istiqbolini sizlarga ishonib topshirganimiz. Va bu vazifani mas'uliyat bilan ado etib kelayotgan sizlar kabi fidoyi insonlar, kelajak bunyodkorlariga har qancha tahsin va tasannolar aytisak, arziydi.

Sizlarni O'qituvchi va murabbiylar kuni bilan yana bir bor tabriklab, **barchangizga sihat-salomatlik, sharaflari va mas'uliyatli faoliyatingizda katta muvaffaqiyatlar, xonadonlaringizga fayz-u baraka** tilayman.

Shavkat MIRZIYOEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni

O'QITUVCHI VA MURABBIYLAR KUNI MUNOSABATI BILAN TA'LIM-TARBIYA TIZIMIDA ALOHIDA O'RNAK KO'RSATGAN XODIMLARDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO'G'RSIDA

Mamlakatimizda ta'lim tizimini rivojlantirish, sohaga doir islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish, yoshlarga ilm-fan asoslari va zamonaviy kasb-hunarlarini o'rgatish yo'lidagi ko'p yillik samarali mehnati, ularni ona Vatanga muhabbat, istiqloq g'oyalari sadoqat ruhida tarbiyalash, jismoniy va ma'naviy jihatdan barkamol avlodni shakllantirish borasidagi katta xizmatlari hamda ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki uchun quyidagilarga faxriy unvonlar berilsin:

"O'zbekiston Respublikasi xalq o'qituvchisi"

Kuziyeva Karomat Mamitjanovna — Sayxunobod tumanidagi 1-umumiy o'rta ta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi, Sirdaryo viloyati

Sobirov Axmed Yuldashevich — Shovot tumanidagi 1-ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta ta'lim maktab-internatining matematika fani o'qituvchisi, Xorazm viloyati

"O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi"

Tursunova Maxbuba Mirzaxojoyevna — Quva tumanidagi 62-ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta ta'lim maktab-internatining biologiya fani o'qituvchisi, Farg'ona viloyati

Qosimov Isam Jo'rayevich — Arnasoy tumanidagi 11-umumiy o'rta ta'lim maktabining fizika fani o'qituvchisi, Jizzax viloyati

"O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi"

Zakirov Alimjon — Jalaquduq tumanidagi "Nurli

yo'l" mahalla fuqarolar yig'ini raisi, Andijon viloyati

Kuchkarova Gulnara Maraimovna — Uchtepa tumanidagi 38-umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori, Toshkent shahri

"O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sport ustoz"

Abunasova Roziya To'rayevna — Peshku tumanidagi bolalar va o'smirlar sport maktabining badiiy gimnastika bo'yicha murabbiyi, Buxoro viloyati

Xolodova Natalya Yuryevna — Surxondaryo viloyati ixtisoslashtirilgan bolalar va o'smirlar sport maktabining yengil atletika bo'yicha murabbiyi

Yurtimizda ta'lim sohasini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, o'quv-tarbiya jarayoniga ilg'or xorijiy tajribalar, innovatsion pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalarni keng joriy etish, ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tatbiq qilish, chuqur bilim va kasb-hunarga ega, mustaqil fikrlaydigan, iqtidorli, sog'lom avlodni voyaga yetkazish ishlariga qo'shgan salmoqli hissasi, yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalashdagi ulkan xizmatlari uchun quyidagilar mukofotlansin:

"Fidokorona xizmatlari uchun" ordeni bilan

Artikov Yeshpulat Ruzyevich — Buxoro viloyati ixtisoslashtirilgan madaniyat maktab-internatining an'anaviy

xonandalik bo'limi o'qituvchisi

Bauebekova Kaljamil Begdullayevna — Mehnat faxriysi, Qoraqalpog'iston Respublikasi

Iriskulov Muxamadavaz Tursunovich — O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi Chet tillarini o'qitishning innovatsiyaviy metodikalarini rivojlantirish respublika ilmiy-amaliy markazi bo'lim boshlig'i

Razakova Uglxan Abdullajilovna — Sergeli tumanidagi 300-ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta ta'lim maktabining matematika fani o'qituvchisi, Toshkent shahri

Tursunov Erkin Atabayevich — Toshkent pediatriya tibbiyot institutining gistologiya, patologik anatomiya kafedrasida professori

"Mehnat shuhrati" ordeni bilan

Azimova Ra'noxol Sharipovna — Sariosiyo tumanidagi "Muruvvat" nogiron ayollar uchun internat uyi enagasi, Surxondaryo viloyati

Akbarova Saodatxon Turg'unovna — Baliqchi tumanidagi 35-umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi, Andijon viloyati

Akramov Abdusakim Ikromovich — Shirin shahridagi 1-umumiy o'rta ta'lim maktabining matematika fani o'qituvchisi, Sirdaryo viloyati

Allaberganov Farxod Raximovich — Yangiariq tumanidagi 39-ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta ta'lim maktabining kimyo fani o'qituvchisi, Xorazm viloyati

(Davomi 3-betda.)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni

O'QITUVCHI VA MURABBIYLAR KUNI MUNOSABATI BILAN TA'LIM-TARBIYA TIZIMIDA ALOHIDA O'RNAK KO'RSATGAN XODIMLARDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO'G'IRISIDA

(Davomi. Boshi 2-betda.)

Bazarbayeva Sevar Yuldashovna — Toshkent tumanidagi 6-umumiy o'rta ta'lim maktabining fizika fani o'qituvchisi, Toshkent viloyati

Bazarov Faziljon — Mehnat faxriysi, Jizzax viloyati
Dadamirzayeva Inobat Murodillayevna — Namanagan shahridagi 77-umumiy o'rta ta'lim maktabining geografiya fani o'qituvchisi, Namanagan viloyati

Irkayev Abduraxim Pandjiyevich — Qarshi davlat universitetining milliy g'oya, ma'naviyat asoslari kafedrasida dotsenti, Qashqadaryo viloyati

Ismailov Bobir Abduraximovich — Ommaviy tadbirlar rassomi, Toshkent shahri

Kasimov Yuldash Ergashevich — Olmazor tumanidagi 106-zaif eshituvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internat o'qituvchisi, Toshkent shahri

Kim Ideya Alekseyevna — Nukus shahridagi "Imkon" reabilitatsiya markazi uslubchisi, Qoraqalpog'iston Respublikasi

Ramanova Gulparshin Joldasbayevna — Chimboy tumanidagi 14-umumiy o'rta ta'lim maktabining kimyo va biologiya fanlari o'qituvchisi, Qoraqalpog'iston Respublikasi

Rasulov Rustam Yavkachovich — Farg'ona davlat universitetining fizika kafedrasida professori, Farg'ona viloyati

Ro'ziyev Temirqul Rajabovich — Qorako'l tumanidagi xalqaro matematika maktabi direktori, Buxoro viloyati

Temirgaliyev Farid Salixovich — Samarqand agro-iqtisodiyot kasb-hunar kollejining ishlab chiqarish ta'limi ustasi, Samarqand viloyati

Toshmirzayeva Sharofat Mirbabayevna — Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidagi filologiya fanlariga ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta ta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Tursunova Rixsigul Baxromovna — Jizzax shahridagi 19-umumiy o'rta ta'lim maktabining ingliz tili fani o'qituvchisi, Jizzax viloyati

Usmanova Ajargul Ibragimovna — Navoiy shahridagi 13-umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori, Navoiy viloyati

Xakimova Nortoqi Muxamadiyevna — Kattaqo'rg'on shahridagi "Barkamol avlod" bolalar markazi direktori, Samarqand viloyati

II darajali "Sog'lom avlod uchun" ordeni bilan

Ibragimova Muyassar Kurbanovna — Respublika yoshlar markazining Xorazm viloyati bo'linmasi "Inklyuziv ta'lim" to'garagi rahbari

Ilov Aslan Nurovich — O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining xalqaro kurash turlari nazariyasi va uslubiyati kafedrasida professori

Korniyenko Valentina Vladimirovna — Uchquduq tumanidagi 3-umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi, Navoiy viloyati

Ochilov Shuxrat Saidovich — Buxoro tumanidagi bolalar va o'smirlar sport maktabi direktori, Buxoro viloyati

Sulaymanova Sayyora Ilyashovna — Quyi Chirchiq tumanidagi "Fartuna" nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasi rahbari, Toshkent viloyati

Turdiyeva Shoxsanam Sayfullayevna — Qarshi shahridagi "Muruvvat" nogiron bolalar uchun internat uyi enagasi, Qashqadaryo viloyati

Ubayeva Zulfiya Djamilovna — Yashnobod tumanidagi 30-Mehribonlik uyi tarbiyachisi, Toshkent shahri

"Do'stlik" ordeni bilan

Abdullayev G'ayrat Urolovich — Muborak sanoat kasb-hunar kollejining maxsus fan o'qituvchisi, Qashqadaryo viloyati

Abdullayeva Maxmuda Nishanbayevna — Namanagan shahridagi 1-ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta ta'lim

maktab-internatining ingliz tili fani o'qituvchisi, Namanagan viloyati

Allakov Ismail — Termiz davlat universitetining algebr va geometriya kafedrasida mudiri, Surxondaryo viloyati

Ashurov Qahramonjon Xayidboyevich — So'x tumanidagi 15-umumiy o'rta ta'lim maktabining jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi, Farg'ona viloyati

Bo'riyev Sulaymon — Buxoro davlat universitetining biologiya kafedrasida professori, Buxoro viloyati

Vlasova Liliya Vildanovna — Gimnastika bo'yicha Respublika oliy sport mahorati maktabining badiiy gimnastika bo'yicha murabbiyi

Jaborova Maxpirat Imomovna — Yangiyer shahridagi 5-maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisi, Sirdaryo viloyati

Jo'rayev Xusanboy — Ulug'nor tumanidagi 15-umumiy o'rta ta'lim maktabining tarix fani o'qituvchisi, Andijon viloyati

Kanaki Eduard Valeryevich — Chilonzor tumanidagi 103-ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta ta'lim maktabining fizika fani o'qituvchisi, Toshkent shahri

Krupskaya Nadejda Vladimirovna — Payariq tumanidagi 20-maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisi, Samarqand viloyati

Kurbanov Xidoyatullo Boboaliyevich — Sariosiyo tumanidagi 16-umumiy o'rta ta'lim maktabining geografiya fani o'qituvchisi, Surxondaryo viloyati

Kushner Yelena Natanovna — Mirzo Ulug'bek tumanidagi "Diplomat International School" nodavlat ta'lim muassasasi direktori, Toshkent shahri

Maxkamov Maruf Maxmudovich — Chust tumanidagi "Barkamol avlod" bolalar markazi to'garak rahbari, Namanagan viloyati

Ruzimova Nafisa Baymurotovna — Qo'shko'pir tumanidagi 1-umumiy o'rta ta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi, Xorazm viloyati

Soliyeva Feruza Gofurovna — Dang'ara tumanidagi 33-umumiy o'rta ta'lim maktabining fransuz tili fani o'qituvchisi, Farg'ona viloyati

Tuyeva Gulshod Zayniyevna — Zarafshon shahridagi Bolalar shaharhasi tarbiyachisi, Navoiy viloyati

Turanova Gulchexra Yegitaliyevna — Bekobod shahridagi 16-umumiy o'rta ta'lim maktabining kimyo fani o'qituvchisi, Toshkent viloyati

Fayziyev Ulugbek Ganiyevich — Navoiy shahridagi "Zarafshan Golden Group" mas'uliyati cheklangan jamiyati ta'sischisi, Navoiy viloyati

Xidirov Sharofiddin Akramovich — Sharof Rashidov tumanidagi 5-umumiy o'rta ta'lim maktabining chizmachilik va tasviriy san'at fani o'qituvchisi, Jizzax viloyati

Chashemov Mansurbek Xalbayevich — Qoraqalpog'iston Respublikasi ixtisoslashtirilgan bolalar va o'smirlar sport maktabining og'ir atletika bo'yicha murabbiyi

Sharipova Fotima Zaripovna — Kogon tumanidagi 6-umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi, Buxoro viloyati

Ergashov Oybek Muxtarovich — Shahrixon qishloq xo'jalik kasb-hunar kollejining maxsus fan o'qituvchisi, Andijon viloyati

Eshbekov To'liqin Usmonovich — O'zbekiston Milliy universitetining jamoatchilik bilan aloqalar nazariyasi va amaliyoti kafedrasida dotsenti

Yuldashov Gulmirzo Shukurlayevich — Gurlan tumanidagi 40-ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta ta'lim maktabining matematika fani o'qituvchisi, Xorazm viloyati

"Shuhrat" medali bilan

Abdullayeva Odina Raximjonovna — Uychi tumanidagi "Jajji professor" nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasi mudiri, Namanagan viloyati

Abduraxmonova Iroda Galabayevna — Xonobod shahridagi 2-umumiy o'rta ta'lim maktabining matematika fani o'qituvchisi, Andijon viloyati

Absatova Mu'tabar Abdumalikovna — Sardoba tu-

manidagi 21-umumiy o'rta ta'lim maktabining biologiya fani o'qituvchisi, Sirdaryo viloyati

Arzimbetova Bibisara Atamuratovna — Qoraqalpog'iston Respublikasi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi katta o'qituvchisi

Axmedjanova Gulsaraxon Maxmudovna — Olmazor yengil sanoat kasb-hunar kollejining ishlab chiqarish ta'limi ustasi, Toshkent shahri

Axmedxodjayev Xamit Tursunovich — Namangan muhandislik-texnologiya institutining tabiiy tolalarni dastlabki ishlab chiqarish kafedrasida professori, Namangan viloyati

Axunjonova Gulsanam Fazildinovna — O'zbekiston tumanidagi 1-maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisi, Farg'ona viloyati

Ashurova Umidaxon Maxmudjonovna — Andijon shahridagi "Bolajon bahori" nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasi mudiri, Andijon viloyati

Baratova Zumrad Raxmatillayevna — Ohangaron tumanidagi "Saxovat" keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslar uchun internat uyi enagasi, Toshkent viloyati

Burxonov Barot G'afforovich — Sherobod tumanidagi 33-umumiy o'rta ta'lim maktabining musiqqa fani o'qituvchisi, Surxondaryo viloyati

Businova Gulnora Boybutayevna — Olmaliq shahridagi 23-umumiy o'rta ta'lim maktabining matematika fani o'qituvchisi, Toshkent viloyati

Vaxidova Lola Abdullayevna — Xatirchi tumanidagi 4-umumiy o'rta ta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi, Navoiy viloyati

Davidova Dilafroz Abduganiyevna — Yangiyo'l shahridagi 1-umumiy o'rta ta'lim maktabining kimyo va biologiya fanlari o'qituvchisi, Toshkent viloyati

Djalilov Umbar Xurramovich — Oltinsoy tumanidagi 43-umumiy o'rta ta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi, Surxondaryo viloyati

Djalilova Xilola Xolyigitovna — Guliston shahridagi 8-umumiy o'rta ta'lim maktabining matematika fani o'qituvchisi, Sirdaryo viloyati

Djurayev Abdimurat Oralovich — Uzun tumanidagi 26-umumiy o'rta ta'lim maktabining matematika va informatika fanlari o'qituvchisi, Surxondaryo viloyati

Yeshimbetova Kamila Shamilyevna — Nukus shahridagi 46-ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta ta'lim maktabining ingliz tili fani o'qituvchisi, Qoraqalpog'iston Respublikasi

Yeshmurotov Rasul Maxsudovich — Taxtak'o'pir tumanidagi 5-umumiy o'rta ta'lim maktabining jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi, Qoraqalpog'iston Respublikasi

Jabbarqulova Nilufar Murtozayevna — G'allaorol tumanidagi 27-umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi, Jizzax viloyati

Janibekov Baxtiyar Suleymanovich — Qo'shrabot tumanidagi 50-umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi, Samarqand viloyati

Jumayeva Go'zal Bahodirovna — Sergeli tumanidagi 301-umumiy o'rta ta'lim maktabining matematika fani o'qituvchisi, Toshkent shahri

Jurayeva Xafiza Berdiyevna — Nishon tumanidagi 1-umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi, Qashqadaryo viloyati

Inomova Zamiraxon Telmanovna — Uchqo'rg'on tumanidagi 1-umumiy o'rta ta'lim maktabining kimyo fani o'qituvchisi, Namangan viloyati

Karimova Muyassar Xayitboyevna — Yangibozor tumanidagi 14-umumiy o'rta ta'lim maktabining fizika fani o'qituvchisi, Xorazm viloyati

Ko'qonova Muniraxon Madaminovna — Marg'ilon shahridagi Erkin Vohidov nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab-internatining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi, Farg'ona viloyati

Qambarova Gulnoraxon Zoxidjonovna — Asaka tumanidagi 24-ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta ta'lim maktab-internatining geografiya va iqtisodiy bilim asoslari fanlari o'qituvchisi, Andijon viloyati

Mavlonova Mamura Usmanovna — Qo'qon shahridagi 12-Mehribonlik uyi tarbiyachisi, Farg'ona viloyati

(Davomi 4-betda.)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni

O'QITUVCHI VA MURABBIYLAR KUNI MUNOSABATI BILAN TA'LIM-TARBIYA TIZIMIDA ALOHIDA O'RNAK KO'RSATGAN XODIMLARDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO'G'RSIDA

(Davomi. Boshi 2-, 3-betlarda.)

Mamarasulova Sabohat Shoqosimovna — Qo'sh-rabot tumanidagi 34-umumiy o'rta ta'lim maktabining biologiya fani o'qituvchisi, Samarqand viloyati

Miraxmedova Sojida Mirzatillayevna — Bo'stonliq tumanidagi G'azalkent xizmat ko'rsatish va iqtisodiyot kasb-hunar kollejining maxsus fan o'qituvchisi, Toshkent viloyati

Mirzayev Muhiddin Juraqobilovich — Yakkabog' tumanidagi 94-umumiy o'rta ta'lim maktabining kimyo va biologiya fanlari o'qituvchisi, Qashqadaryo viloyati

Mirzayeva Mahbuba Abduqodirovna — Urgut tumanidagi 34-umumiy o'rta ta'lim maktabining fizika fani o'qituvchisi, Samarqand viloyati

Mullaboyev Abdurasul Ergashevich — Uychi tumanidagi 13-bolalar musiqa va san'at maktabi o'qituvchisi, Namangan viloyati

Mullajonova Iroda Sobirovna — Piskent tumanidagi 40-umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi, Toshkent viloyati

Nazarova Shazadaxon Turdaliyevna — Oltinko'l tumanidagi 32-umumiy o'rta ta'lim maktabining fizika fani o'qituvchisi, Andijon viloyati

Narziyev Xolmurod Sadinovich — Navbahor tumanidagi 36-umumiy o'rta ta'lim maktabining matematika va informatika fanlari o'qituvchisi, Navoiy viloyati

Norboyeva Nodira Nasrullayevna — Tayloq tumanidagi 4-umumiy o'rta ta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi, Samarqand viloyati

Nosirova Nargiza Xolmurodovna — Qiziltepa tumanidagi 39-ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta ta'lim maktab-internatining ingliz tili fani o'qituvchisi, Navoiy viloyati

Nosirova Shoxida Rasulovna — Jizzax yengil sanoat kasb-hunar kollejining ishlab chiqarish ta'limi ustasi, Jizzax viloyati

Ollaberganova Leninza Boltabayevna — Xiva shahridagi Bolalar shaharchasi direktorining o'quv va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari, Xorazm viloyati

Rasulov Baxram Narimanovich — Andijon ixtisoslashtirilgan olimpiya zaxiralari maktab-internatining sambo kurashi bo'yicha murabbiyi, Andijon viloyati

Raximov O'ral Malikovich — Boysun tumanidagi 6-bolalar musiqa va san'at maktabining baxshichilik yo'nalishi o'qituvchisi, Surxondaryo viloyati

Raxmanov Uchqun Toshpo'latovich — Qarshi shahridagi "ILM-U ZIYO SCHOOL" nodavlat ta'lim muassasasi direktori, Qashqadaryo viloyati

Raxmonov Umid Olimovich — O'zbekiston Milliy universiteti qoshidagi S.H.Sirojiddinov nomidagi akademik litseyning matematika fani o'qituvchisi, Toshkent shahri

Sadikova Baxtiniso Isanovna — Zafarobod tumanidagi 14-umumiy o'rta ta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi, Jizzax viloyati

Samatova Gulchexra Mirxaidovna — Boyovut tumanidagi 8-umumiy o'rta ta'lim maktabining ingliz tili fani o'qituvchisi, Sirdaryo viloyati

Saparniyazova Muyassar — Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining o'zbek tilshunosligi kafedrasidagi dotsenti

Sattarov Axmad Abdinazarovich — Qumqo'rg'on qishloq xo'jalik kasb-hunar kollejining maxsus fan o'qituvchisi, Surxondaryo viloyati

Sisoyeva Yuliy Vladimirovna — Angren shahridagi 33-umumiy o'rta ta'lim maktabining ingliz tili fani o'qituvchisi, Toshkent viloyati

Sulaymonova Zilolaxon Turg'unboyevna — Bag'dod tumanidagi 1-ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta ta'lim maktab-internatining fizika fani o'qituvchisi, Farg'ona viloyati

Suyarova Zebiniso Eshonkulovna — Bulung'ur tumanidagi 2-umumiy o'rta ta'lim maktabining rus tili va adabiyoti fani o'qituvchisi, Samarqand viloyati

Talipov Erkin Daliyevich — Ishtixon tumanidagi 1-ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta ta'lim maktabining fizika fani o'qituvchisi, Samarqand viloyati

Tuygunov Mirza Jumayevich — Chiroqchi tumanidagi 112-umumiy o'rta ta'lim maktabining nemis tili fani o'qituvchisi, Qashqadaryo viloyati

Turayeva Gulzar Ruziboyevna — Qarshi shahridagi 35-umumiy o'rta ta'lim maktabining fizika fani o'qituvchisi, Qashqadaryo viloyati

Turgunova Mamlakat Artikbayevna — Namangan transport va axborot texnologiyalari kasb-hunar kollejining maxsus fan o'qituvchisi, Namangan viloyati

Tursunova Kamolotxon Xakimjonovna — Oltiariq

tumanidagi 13-umumiy o'rta ta'lim maktabining texnologiya fani o'qituvchisi, Farg'ona viloyati

Umarqulov Abdusattar Amanboyevich — Marhamat tumanidagi 31-ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta ta'lim maktab-internatining matematika fani o'qituvchisi, Andijon viloyati

Xakimova Gulmira Abdullayevna — Yunusobod tumanidagi 260-umumiy o'rta ta'lim maktabining informatika fani o'qituvchisi, Toshkent shahri

Xakimova Sayyora Kubayevna — Mirzaobod tumanidagi 18-umumiy o'rta ta'lim maktabining rus tili va adabiyoti fani o'qituvchisi, Sirdaryo viloyati

Xalimova Dilbar Ibadulloevna — Buxoro shahridagi 3-umumiy o'rta ta'lim maktabining milliy g'oya va ma'naviyat asoslari fani o'qituvchisi, Buxoro viloyati

Xamrayev Nosirjon Kamalovich — Chortoq tumanidagi 3-umumiy o'rta ta'lim maktabining rus tili va adabiyoti fani o'qituvchisi, Namangan viloyati

Xusanova Hafiza Shirinboyevna — Navoiy shahridagi Mehribonlik uyi tarbiyachisi, Navoiy viloyati

Hamroyeva Matluba Saidovna — Buxoro shahridagi 32-Mehribonlik uyi tarbiyachi yordamchisi, Buxoro viloyati

Shodmanova Shaxnoza Kurdashevna — Toshkent pediatriya tibbiyot instituti qoshidagi akademik litseyning kimyo fani o'qituvchisi, Toshkent shahri

Eraliyeva Gulchexra Tuxtamaxamadovna — Buva tumanidagi 25-umumiy o'rta ta'lim maktabining biologiya fani o'qituvchisi, Farg'ona viloyati

Yusupova Gulistan Jamalatdinovna — Qorao'zak tumanidagi 8-umumiy o'rta ta'lim maktabining fizika fani o'qituvchisi, Qoraqalpog'iston Respublikasi

Yusupova Muyassar Xaliliyevna — Beruniy tumanidagi 36-umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi, Qoraqalpog'iston Respublikasi

Yaqubova Ma'mura Isaqjonovna — Urganch shahridagi 29-umumiy o'rta ta'lim maktabining matematika fani o'qituvchisi, Xorazm viloyati

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

Sh.MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2019-yil 27-sentabr

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni

ROSSIYA FEDERATSIYASINING YEKATERINBURG SHAHRIDA BOKS BO'YICHA BO'LIB O'TGAN JAHON CHEMPIONATIDA YUQORI NATIJALARGA ERISHGAN SPORTCHI VA MURABBIYLARDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO'G'RSIDA

Mamlakatimizda sport sohasini rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamli ishlar va yaratilayotgan sharoitlar tufayli sportchilarimiz tomonidan ulkan yutuqlar qo'lga kiritilmoqda.

Xususan, joriy yilning 6—22-sentabr kunlari Rossiya Federatsiyasining Yekaterinburg shahrida dunyoning 80 ga yaqin mamlakatlari o'rtasida boks bo'yicha bo'lib o'tgan jahon chempionatida milliy terma jamoamiz vakillari yuksak a'zma-u shijoat va mahorat namunasini ko'rsatib, birinchi o'rinni egallaganligi hamda Vatanimizning xalqaro miqyosdagi shon-shuhratini tarannum etishga katta hissa qo'shganligi, yurtimizda sportni keng ommalashtirish, sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish, yoshlar ongida milliy g'urur, ona Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'ularini kuchaytirish borasidagi munosib xizmatlari uchun quyidagilar faxriy unvon va medallar bilan mukofotlansin:

"O'zbekiston iftixori"

Jalolov Bahodir Isomiddin o'g'li — Boks bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasi a'zosi

Mirzaxalilov Mirazizbek Mirzakarim o'g'li — Boks bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasi a'zosi

"O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sport ustozlari"

Kurbanov Marat Galiyevich — Boks bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasi bosh murabbiyi

Qilichev To'likin Maxmurovich — Respublika ixtisoslashtirilgan olimpiya zaxiralari maktab-internatining boks bo'yicha murabbiyi

Erkayev Baxodir Turgunovich — Farg'ona viloyati ixtisoslashtirilgan bolalar va o'smirlar sport maktabining boks bo'yicha murabbiyi

"O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi"

Zoirov Shaxobidin Shokirovich — Boks bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasi a'zosi

"Kelajak bunyodkori" medali bilan

Baturov Bobo-Uson Shamsutdin o'g'li — Boks bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasi a'zosi

Ro'zmetov Dilshodbek Yusupbay o'g'li — Boks bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasi a'zosi

"Shuhrat" medali bilan

Axmedov Burxon Baxramovich — Paxtakor tumanidagi bolalar va o'smirlar sport maktabining boks bo'yicha murabbiyi, Jizzax viloyati

Qilichev Farruh Komilovich — Chirchiq ixtisoslashtirilgan olimpiya zaxiralari maktab-internatining boks bo'yicha bosh murabbiyi, Toshkent viloyati

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

Sh.MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2019-yil 27-sentabr

"Muallim uchun kiyinish madaniyati qatorida nutq madaniyati ham juda kerak".

Muallimlikdan Qahramonlikkacha

Hasan Normurodov... Bu insonni Samarqandda ko'pchilik yaxshi taniydi, hurmat qiladi. Nuroniyning oqsoqoli sifatida obro' qozongani rost. Aynan shu jihat — u kishining nufuzi, bilim va salohiyati haqida ko'pchilik bilgani ham otaxon haqida yozishni qiyinlashtiradi.

...Biroz oldin u kishi bilan telefonda gaplashib, uchrashuv belgiladik.

— O, sizmisiz, tanidim, nega uzoqlashib ketdingiz, kam zo'ryapsiz oxirgi paytlarda, — tezda eshladi otaxon.

Salom-alikdan so'ng bir yo'qlamoqchi, suhbatini olmoqchi ekanimizni ma'lum qildik. Xullas, suhbat uchun yarim soat vaqt ajratildi.

Hasan Normurodov Mustaqillik bayrami arafasida davlatimiz rahbarining farmoniga binoan, "O'zbekiston Qahramoni" unvoni bilan taqdirlandi. Har kuni ham Qahramon bilan gaplashavermaysiz. Savollar jo'yali bo'lishi kerak. Bu toifa insonlarning oldida odam o'zini namunali tutishi lozim: Mahmaddonlik ketmaydi.

Istaysizmi-yo'qmi, tartibli, madaniyatli, nufuzli insonlar bilan uchrashuv oldidan ong ostida shunday o'ylar kechadi. Bu tabiiy jarayon.

— Keling, o'g'lim, sizlarni kutib turuvdim, — deya nuroniy ochiq chehra bilan peshvoz chiqdi.

Samimiy, iliq munosabat vaziyatni o'zgartirdi. Bu suhbatimiz erkin o'tishidan dalolat beradi.

Stol ustida xilma-xil gazeta va kitoblar turibdi. Bu insonning mutolaasiz bir soat ham o'tirolmasligini ko'pchilik aytgan. Darhaqiqat, rost ekan. Xonada ijtimoiy-siyosiy nashrlar, kitoblardan tortib adabiy-ma'rifiy jumallargacha topiladi.

— Har qanday sohada ham adabiyot va madaniyatdan yiroq bo'lish odamning kamchiligi hisoblanadi. Nega bunday deyapman? Chunki odamlar bilan mulotqda o'qimagan odam tez qo'qiladi, suhbatdoshini zeriktiradi. Dunyo ko'rish, yurtma-yurt kechish boshqa, shuning barobarida kitob varaqlash, o'z tafakkuri ustida bosh qotirish mutlaqo boshqa narsa, — deydi Hasan Normurodov. — Avvalo, muallimman. Faoliyatimni boshlang'ich sinf o'qituvchisi sifatida boshlaganman. Keyinchalik rusiyazbon bolalarga o'zbek tilidan dars berganman. O'sha paytlardayoq til bilan ishlashga, adabiy til me'yorlariga amal qilishga odatlandim.

Bugun ko'pchiligimizga sir bo'lmagan bir haqiqat bor. Maktablar bir paytlar osonlikcha qurilmadi, ta'mirlanmasdi. Boringki, Markaz "himmati" bilan biror hududda ta'lim muassasasi qurilishi boshlansa, bu jarayon yillab davom etardi. Foydalanishga topshirilgan maktabning partalari berilsa, sport anjomlari kechikar, ikki qavatli qilib qurilsa, tomi yopilmasdi. Quruvchini siquvga olsangiz, teparodan "bezovta" qilishardi. Xullas, ko'nsangiz — shu, bo'lmasa, maktab rahbarliginiyam, muallimlikniyam yig'ishtiring.

Bugun maktab qurilishi nainki viloyat, kichikroq tuman-shahar uchun ham arziri gap emas. Istantangiz, mahalliy hokimlikning o'zi ham, davlat ham ta'mirlab, qurib bera oladi. Sharoit bo'lmasa, talab qila olasiz. Shuning o'zi o'qituvchining, tizim mas'ullarining katta yutug'i, deb o'ylayman.

Buyuk qaytish

— Keyinchalik viloyat xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i bo'lib ishladim, — suhbatni davom ettirdi nuroniy. — Tan olaman, bu ish juda mashaqqat edi. U yog'ini tortsangiz, bu yog'i ochilib qolardi, bu yog'ini tortsangiz, u yog'i...

O'qituvchidan ta'lim sifatini talab qilasiz, o'z ustida ko'proq izlanishni so'raysiz, fidoyi emaslikda ayblaysiz. Muallimning sifatli ta'lim berishi uchun sharoit yetarli edimi? Yaqin yillargacha ham bozorlarimizda oliy ma'lumotli muallimlar pomidor-bodring sotdi. Ro'zg'orini boqishi uchun oyligi yetmadi. Kamiga, paxta terishga, ko'cha supurishga jalb etildi.

Singapur sobiq bosh vaziri Li Kuan Yu ta'lim sifati haqida shunday degandi: "Muallimni eng quyi tabaqadan Singapurdagi eng yuqori martabaga ko'tardim. Davlatdagi "mo'jiza"larni qilgan insonlar — muallimlardir".

Qarang, qanchalik ibratli gap. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham "O'qituvchini hurmat qilganimni



men ham hurmat qilmayman. O'qituvchi jamiyatdagi eng obro'li kasb egasi bo'lishi shart", deyapti.

Bu shunchaki gap bo'lib qolayotgani yo'q, albatta. O'qituvchining maoshi ikki barobargacha oshdi. Qog'ozbozlikdan ozod etildi. Pedagoglarga turli imtiyoz va imkoniyatlar muhayyo etilyapti. Bularning natijasida maktablarga erkak o'qituvchilar qaytapti. Ularning maktablarga qaytayotganini Xalq ta'limi vaziri ham ta'kidlab o'tdi. Ochig'i, men buni BUYUK QAYTISH, deb hisoblayman!

Muallimning haqiqatlari

— Lavozim hech qachon insonning bezagi bo'lmagan. Aksincha, amal ortidan quvgan odam tez qo'qilganiga ko'p guvoh bo'lganman.

— Rahbarga nima kerak, nima kerak emas? Buni har bir inson o'ylab ko'rishi lozim. Rahbar keng tafakkurli, kecha va bugunning eng yaxshi sifatlarini o'zida mujassam etgan bo'lishi lozim.

— Sizga muammosini aytib kelgan insonga aslo ozor bermang, noumid qaytarmang. Siz uning eng oxirgi manzili bo'lishingiz mumkin.

— Kitob tanlashni bilish kerak. Uyimdagi uch mingta kitobni eng yaxshi do'stlarim, deb hisoblayman.

— Nutqingiz ustida har kuni ishlang. Ayniqsa, muallim uchun kiyinish madaniyati qatorida nutq madaniyati ham juda kerak.

Hasan Normurodov bilan suhbatlasharkansiz, otaxon bu kabi hikmatlarni, hayoti davomida anglagan haqiqatlarini tez-tez eslatib turadi. Bahouddin Naqshband, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab hayotidan lavhalar, ijodidan misollar keltiradi.

Lutf

Prezident Shavkat Mirziyoyev tantanali marosimda Hasan Normurodovga "O'zbekiston Qahramoni" unvonini berar ekan, jumladan, shunday dedi: "**Hasan Norbekovichni Navoiy bobomizga o'xshatib, g'ururlanaman!**"

Suhbat asnosida otaxonga davlatimiz rahbarining shu qiyosini eslatdik.

— Rosti, xijolat tortdim, — dedi suhbatdosh. — Hazrat Navoiyning xizmatlari beqiyos. U kishi butun turkiy xalqlarning faxri ekani shubhasiz. Bu lutfga, qiyosga munosib bo'lish osonmas. O'z navbatida, shu paytga qadar buyuk shoirimizning asarlarini ko'proq mutolaa qilmaganim uchun o'zimdand ranjdim. Hayotda har narsa saboq aslida. Demak, bu qiyos ham bejiz emas. Garchi biroz kechikib bo'lsa-da, Navoiy asarlarini ko'proq mutolaa qilishga vaqt ajrata boshladim...

Naq ikki soatdan ortiq davom etgan suhbatimiz asnosida nuroniy bir necha bor: "Sakson yoshga kirdim. Judayam til o'rgangim keladi. Dunyoni anglashni istayman. Xalqaro miqyosda muvaffaqiyatga erishgan yoshlarimizni quchgim keladi. Ularga cheksiz havas qilaman...", dedi.

Darhaqiqat, otaxonda hamon havas bor, ishtiyoq bor, hayrat bor. Faoliyatini Kattaqo'rg'onning chekka bir qishlog'ida muallimlikdan boshlagan, bugungi kunda O'zbekiston Qahramoni bo'lgan bu insonni beixtiyor barcha insoniy bilimlar jamlangan kitobga o'xshatdik. U shunday kitobki, qayta-qayta o'qiladi, yillar davomida o'zini o'zi mukammallashtiraveradi. Uning ziyosidan bahramand bo'lganlar, shubhasiz, baxtiyor insonlardir!

Isomiddin PO'LATOV,
jurnalist

Bitiruvchilarga maslahat

Yunusobod tumanidagi 17-umumta'lim maktabining 11-sinf o'quvchilari uchun ma'naviyat soatlari qiziqarli mavzular va yangi taassurotlar bilan o'tmoqda. Kuni kecha Xalq ta'limi vazirining birinchi o'rinbosari Alisher Umarov maktabga kelib, o'quvchilarga dars o'tdi.



U bitiruvchilarning har biri bilan alohida suhbatlashib, qaysi kasbni tanlagani hamda o'z yo'nalishi bo'yicha qanday ko'nikmaga ega ekani bilan qiziqdi. Vazir o'rinbosari o'zining hayot yo'li va faoliyatidan kelib chiqib, inson uchun bilim va tajriba muhimligini ta'kidladi. Bolalar ham mehnat ortidan muvaffaqiyat kelishi, o'qish-o'rganish natijasida keng dunyoqarashga ega bo'lish haqida motivatsiyaga ega bo'ldi.

— Biz tarbiyaviy soat darslariga boy tajribaga ega insonlar, rahbar kadrlarni taklif etib, ularning fikrlari, maslahatlari

bilan o'quvchilarni tanishtirib boramiz, — deydi 11-sinf rahbari Inobat Rashidova. — Bunday uchrashuvlar bolalarning ishtiyoq va havasini oshiradi. Bu o'quvchilar maktab bitiruvchilari, ular kelajak ostonasida turib, hayoti davomida asqotadigan kasblar bo'yicha keng ma'lumot olishmoqda.

Mashg'ulotda Alisher Umarov o'g'il-qizlarga oliy ta'lim olish uchun yaratilayotgan imkoniyatlar va ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar haqida o'xtalib o'tdi.

Shoira BOYMURODOVA

Ilm ahliga ehtirom

Har bir insonning shakllanishida, hayotda o'z o'rnini topishida ustozlarning hissasi katta. Ustoz ulashgan mehr va bilim nuridan bahra olgan qalb ham mehri bo'ladi. Bu borada oliy ta'lim muassasalarida ta'lim berayotgan ustozlardan chuqur bilim va mas'uliyat, kasbiy mahorat va yangicha fikrlash talab etiladi.

Chunki auditoriyalarda ustozga tikilib o'tirgan talaba allaqachon voyaga yetgan, o'z mustaqil fikri va qarashiga ega inson. Uni maktab o'quvchisi kabi qolipga solish mumkin emas. Ana shunday ruhi qaynoq yoshlarning har bir savoliga aniq, lo'nda javob bera olish muhim.

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika uni-

versitetining geologiya-qidiruv fakultetida 1-oktabr — O'qituvchi va murabbiylar kuni umum-xalq bayrami munosabati bilan tantanali bayram tadbiri bo'lib o'tdi. Bo'lg'usi geologlar va neftgaz mutaxassislarini yetishtirib beruvchi ta'lim dargohi respublikamiz iqtisodiyoti rivojida o'z o'lmiga ega. Yer qa'ridagi noyob qazilmalarni aniqlash xuddi okean tubidagi javohirlarni terishdek gap. Bayramona bezatilgan TDTU O'zbekiston-Yaponiya markazi zalida fakultet professor-o'qituvchilari hamda talaba-yoshlar jam bo'ldi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zolari, shoirlar Rustam Musurmon va Farog'at Xudoyazarova ijod namunalardan yig'ilganlarni bahramand etdi.

O'zbek Milliy akademik drama teatri aktrisasi, O'zbekiston

xalq artisti Aziza Begmatova ijrosidagi checha obrazi ustoz-u talabalar chehrasiga kulgi ulashdi. O'zbekiston davlat filarmoniyasi xonandalari Tohir Saidov hamda Surayyo Qosimova ijrosidagi dilbar kuy-qo'shiqlar tadbir ishtirokchilariga bir olam zavq hadya etdi.

Shundan so'ng geologiya-qidiruv fakultetining bir guruh professor-o'qituvchilari bayram munosabati bilan taqdirlandi.

— 1100 nafar talaba bilim olayotgan fakultetimizda o'z kasbining fidoyilari dars berishadi. Shu bois ustozlarni bayram kunlari xursand etish uchun Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini Jonibek Tursunov boshchiligidagi pedagogik jamoamiz astoydil harakat qildi, — deydi fakultet dekani Abdujabbor Murtajoyev.

Fakultetda tahsil olayotgan bo'lg'usi geologlar ichida ijodkorlar ham borligi kishini quvontiradi. Qoraqalpog'istonlik talaba Shahnoza Turdimurodova qoraqalpoq va o'zbek tillarida yozgan she'riy mashqlaridan o'qib berdi.

Nazokat XOLMETOVA,
"Ma'rifat" muxbiri
V.GRANKIN olgan suratlar.



Ustoz — aziz

Yunusobod tumanidagi 272-maktabda bayram munosabati bilan "Ustoz — aziz" nomli tadbir bo'lib o'tdi.

Tadbir o'quvchilar tomonidan ustozlarni ulug'lovchi she'r va qo'shiqlar ijro etish bilan boshlandi. So'zga chiqqanlar barcha pedagoglarni ushbu ayyom bilan tabriklab, bugungi kunda o'qituvchi-murab-

biylarga qaratilayotgan e'tibordan mamnun ekanliklarini ta'kidladilar.

Tadbirda 2-"B" sinf rahbari Nilufar Shamsiddinova o'quvchilar bilan tayyorlagan "Dono bog'bon" kichik sahna ko'rinishi, 2-"V" sinf rahbari Yulduz Shamsiyeva va 2-"G" sinf rahbari Sanobar Abdullayeva boshchiligidagi o'g'il-qizlar tomonidan aytilgan bayram tabrikleri barcha ustozlarga manzur bo'ldi.

Burhon RIZOQULOV
olgan suratlar.



Psixologlar tajriba almashdi

Xalq ta'limi vazirligi tomonidan "Yoshlar uchun yoshlar bilan birgalikda va zamonaviy yondashuv" shiori ostida "O'quvchi-yoshlarning ijtimoiy-psixologik muammolari va yechimlari" mavzusidagi II respublika psixologlar konferensiyasi o'tkazildi.



Zamonaviy yoshlarda globallashtirish ta'sirida vujudga kelayotgan ijtimoiy-psixologik rivojlanishdagi muammolarni o'rganish hamda ularning amaliy yechimlari bo'yicha tajriba almashish maqsad qilingan konferensiyada professional psixolog mutaxassislar shu balarda trening o'tkazdi.

Abdulla Avloniy nomidagi xalq ta'limi tizimi rahbar va mutaxassis xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti hamda O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi hamkorligida o'tkazilgan tadbirda maktab psixologlari, tashxis markazi vakillari qatnashdilar.

— Konferensiyada ilgari surilgan amaliy yechimlar bo'yicha tajriba almashib, amaliyotchi-psixologlar salohiyatini oshirish va yangi o'quv yilida psixologik xizmatni yuksaltirishga qaratilgan ustuvor vazifalarni belgilab oldik, — deydi O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi metodisti Zafar Saydullaxonov.

MUXBIRIMIZ

Tabiiy fanlar sultoni



Poytaxtimizdagi 260-maktabda sentabr — iqtisodiy bilim asoslari va geografiya fanlari oyligi doirasida "Geografiya — tabiiy fanlar sultoni" mavzusida tadbir o'tkazildi.

— Tadbir maktabning geografiya fani o'qituvchisi Sevara To'ychiyeva tomonidan o'tkazildi, — deydi tuman XTB tabiiy fanlar metodisti X.Jalolov. — Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 muhim tashabbus bo'yicha tashkil etilgan geografiya to'garagi a'zolari ushbu tadbirda faol ishtirok etib, o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini namoyon etdilar. Geograf olimlar, buyuk sayyohlar hayoti va faoliyati bo'yicha ma'lumotlar berdilar, fanga oid she'r, qo'shiq, raqs va sahna ko'rinishlari ijro etdilar. Tadbir doirasida tumandagi ta'lim muassasalari fan o'qituvchilari o'quvchilar tomonidan qo'l mehnati bilan yaratilgan ijodiy ishlar ko'rgazmasini tomosha qildilar.

Maftuna PIRNAZAROVA,
O'zDJTU talabasi

Mo'ynoq tumanidagi "Oq kema" bolalar sog'lomlashtirish oromgohiga "Damas" avtomobili topshirildi.

O'qituvchiga "Spark" berildi

(Davomi. Boshi 1-betda.)

Tanlovning quyi bosqichlarida har bir hududdan eng yuqori ball to'plagan bir nafar ishtirokchi respublika bosqichida qatnashdi. O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasida tuzilgan maxsus komissiya qatnashchilar orasidan eng munosiblarni g'olib sifatida e'tirof etdi.

Tanlov natijalariga ko'ra, To'raqo'rg'on tumanidagi 1-maktabning o'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchisi, boshlang'ich kasaba uyushma qo'mitasi raisi Lobarxon Rustamova 1-o'rinni egalladi va "Spark" avtomobili bilan taqdirlandi. Konimex tumanidagi 2-maktabning matematika fani o'qituvchisi, boshlang'ich kasaba uyushma qo'mitasi raisi Nuriya To'raqulova 2-o'rin sohibi bo'ldi va "Samsung" muzlatkichi bilan mukofot-

landi. Dehqonobod tumanidagi 69-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi, boshlang'ich kasaba uyushma qo'mitasi raisi Dilorom Toshmuradova 3-o'rinni egallab, "Samsung" kir yuvish mashinasi bilan taqdirlandi. Respublika bosqichida faol ishtirok etgan 11 nafar pedagogga diplom va noutbuk topshirildi.

— Tanlovning bosh mukofotiga loyiq ko'rilganidan juda mamnunman, — deydi Lobarxon Rustamova. — Bu tanlov yurtimizda o'qituvchilar nufuzini yanada oshirishga xizmat qiladi. Endi faoliyatimga yanada mas'uliyat bilan yondashib, bildirilgan ishonchni oqlashga harakat qilaman. Biz — pedagoglarga e'tibor qaratib, g'amxo'rlik qilayotgan davlatimiz rahbariga, shunday tanlovlarni tashkil etib, rag'bat-



lantirayotgan tashkilotchilarga minnatdorigimni bildiraman.

Shuningdek, ta'lim sohasida samarali mehnat qilayotgan, shogirdlari yuqori natijalarga erishayotgan besh nafar pedagog O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasining "Ehtirof" nishoni bilan taqdirlandi. Bundan tashqari, sohada ko'p yillardan buyon faoliyat yuritib kelayotgan fidoyi ustoz-murabbiylarning bir guruhiga kasaba uyushmalari tizimidagi sanatoriyarga yo'llanma berildi. Tadbir davomida kasaba uyushmalari tomonidan ta'sis etilgan "Eng faol yosh o'qituvchi", "Innovatsion faol xodim", "Eng mahoratli o'qituvchi" nominatsiyalari

g'oliblari ham aniqlanib, noutbuk bilan taqdirlandi.

Tadbir doirasida yosh avlodni ma'naviy, jismoniy va intellektual rivojlantirish, shuningdek, yozgi mavsum davomida o'g'il-qizlarning maroqli hordiq chiqarishini ta'minlashda faollik ko'rsatgan Mo'ynoq tumanidagi "Oq kema" bolalar sog'lomlashtirish oromgohiga Kasaba uyushmalari federatsiyasi tomonidan "Damas" avtomobili topshirildi.

Tadbir yakunida san'at ustalari, yosh ijrochilar va raqs ansambli raqqosalari ishtirokidagi konsert dasturi namoyish etildi.

Sardor MUSTAFOYEV,
"Ma'rifat" muxbiri
V.GRANKIN olgan suratlar.



Uch ta'limiy maqsad uchun sarmoya

Xalq ta'limi vazirligida O'zbekiston va Amerika Qo'shma Shtatlari o'rtasida ta'lim taraqqiyotiga ko'maklashish bo'yicha muhim kelishuv imzolandi. Hujjatni Xalq ta'limi vaziri Sherzod Shermatov va AQSh elchixonasining muvaqqat vakili Alan Melsar hamda USAIDning Markaziy Osiyo mintaqaviy vakolatxonasi rahbari vazifasini bajaruvchi Juli Sausfild imzoladi.

Kelishuvga binoan, AQSh hukumati kelgusi besh yil davomida mamlakatimizga ta'lim sohasidagi islohotlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida 50 million AQSh dollarigacha miqdorda mablag' ajratadi. Vazirlik axborot xizmati ma'lumotiga ko'ra, Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan besh tashabbusning uchinchi yo'nalishi bo'yicha XTV tomonidan loyiha ishlab chiqilgan. Uni amalga oshirish uchun mazkur kelishuv doirasida umumiy mablag'ning 19,5 million dollariga teng bo'lgan birinchi qismi ajratildi.

— "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"ga ko'ra, tizimni isloh qilish bo'yicha aniq vazifalar belgilandi, — deydi Xalq ta'limi vaziri Sherzod

Shermatov. — Eng avvalo, oldimda uchta maqsad bor. Birinchidan, maktablarda ta'lim sifatini oshirish, ya'ni bunda o'quvchilarning bilim darajasi xalqaro mezon va talablarga javob bera olishi tushuniladi. Hozir bu borada qator ishlar amalga oshirila boshlandi. Ikkinchi maqsad — chet tillarni o'qitish tizimini takomillashtirish. Ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitishni qayta ko'rib chiqishimiz kerak. Bu o'rinda o'qituvchilarimizning o'zi chet tilini qay darajada biladi, degan savol turibdi. Birinchi navbatda, o'qituvchilarning bilim darajasi o'rganilib, shunga ko'ra ular malakasini oshirish kerak. Shu yo'l bilan o'quvchilarimizning ham chet tilini bilish darajasini oshiramiz. Uchinchi maqsad — ax-

borot texnologiyalarini o'qitish tizimini kuchaytirish. Buning uchun axborot texnologiyalarini o'qitish metodikasini ham kuchaytirishimiz kerak. Aynan shu yo'nalish bo'yicha AQSh ta'limi juda ham ilg'or ekanini hammamiz bilamiz. Dunyodagi eng yirik AKT kompaniyalari AQShda paydo bo'lgan. Shu bois bu mamlakat vakillari bizga shu yo'nalishda yordam bermoqchi. Ular yurtimizda informatika fanini o'qitish metodologiyasini tanqidiy o'rganib chiqib, uni yangicha yo'lga qo'yish bo'yicha ko'maklashadi. Bu hamkorlik orqali ta'lim sifatini xalqaro mezonlar asosida olib borish, ingliz tili hamda axborot texnologiyalarini o'qitish sifatini oshiramiz. Bugun shu uch asosiy maqsadga erishish uchun AQShdan 50 million dollarlik grant olish bo'yicha kelishuvni imzoladik.

Mazkur kelishuv AQSh va O'zbekiston hukumatlari o'rtasidagi birinchi keng qamrovli grant-shartnoma bo'lib, AQShning yurtimizning ta'lim



sohasidagi taraqqiyotini qo'llab-quvvatlash borasidagi uzoq muddatli majburiyatini belgilaydi.

Ta'lim sohasidagi asosiy muammolardan biri, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini obyektiv baholash vositalarining yo'qligidir. USAID agentligi ko'magida umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida o'qish, matematika (EGRA va EGMA) fanlari bo'yicha tadqiqotlar olib boriladi. Ushbu izlanishlar o'quvchilarning bilimidagi bo'shliqlarni aniqlash va mavjud muammolarni bartaraf

etishga yordam beradi. Mazkur loyiha uchun USAID qo'shimcha 1,5 million AQSh dollari ajratadi.

Shuningdek, USAID agentligi Xalq ta'limi vazirligiga maktablarimizda ingliz tilini o'qitishni takomillashtirishga qaratilgan "English speaking nation" dasturini amalga oshirishda yordam beradi. AQShlik hamkorlar bu loyihani amalga oshirish uchun yana 5 million dollar taqdim etadi.

Zirola MADATOVA,
"Ma'rifat" muxbiri
B.RIZOQULOV olgan surat.



ABDULLA AVLONIY NOMIDAGI XALQ TA'LIMI TIZIMI RAHBAR VA MUTAXASSIS XODIMLARINI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

*Qadrli va muhtaram ustozlar!
Siz, azizlarning timsolingizda o'z hayotini
yurtimiz kelajagi,
yosh avlod ta'lim-tarbiyasidek mas'uliyatli,
ayni damda sharaflig kasbga
bag'ishlagan barcha yurtdoshlarimizni
1-oktabr — O'qituvchi va murabbiylar kuni
umumxalq bayrami bilan
samimiy qutlaymiz!
Sizlarga baxt-saodat, uzoq umr,
mashaqqatli mehnatlaringizda
omad va zafarlar tilaymiz!
Ayyomingiz muborak
bo'lsin, azizlar!*

Устоз – кадри буюк муаллим!





O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI



“Yilning eng yaxshi fan oʻqituvchisi — 2019”

Yuzi yorugʻ, qaddi baland murabbiy

Baxmal tumani Oʻdamali qishlogʻidagi 28-maktabning kimyo fani oʻqituvchisi Turgʻun Jonzoqov “Yilning eng yaxshi fan oʻqituvchisi — 2019” koʻrik-tanloving respublika bosqichida 1-oʻrinni qoʻlga kiritdi.



Boʻladigan bola boshidan, deganlaridek, qahramonimiz ham bolaligidan oʻqishga, mutolaaga qiziqishi bilan tengdoshlaridan ajralib turardi. 1987—1997-yillari mazkur maktabda saboq oldi. Birinchi muallimi bobosi Musulmon Jonzoqov boʻlgan. Bilimga chanqoq bola keyinchalik ham ustozlar koʻmagiga tayanib, barcha fanlarni aʼlo baholarga oʻzlashtirdi. Bolalik yillari kimyo fani oʻqituvchisi Toshtemir Abdurashidovning darslarini oʻzgacha ishtiyoq bilan tinglardi. Oliy oʻquv yurtiga kirishga tayyorlaydigan ustoz Mirahmad Begiboyevning maslahati va amaliy koʻmagini aslo unutmaydi. 1997-yili Jizzax davlat pedagogika institutining kimyo yoʻnalishiga oʻqishga kirdi. 2001-yili qadrdon maskani — 28-maktabga kimyo fani oʻqituvchisi boʻlib ishga keldi.

Oʻquvchilik yillarimda turli tanlovlarda koʻp qatnashganman, — deydi Turgʻun Jonzoqov. — Maktabimizda oʻquv-laboratoriya jihozlari yoʻqligi tufayli tanloving viloyat bosqichida amaliy mashgʻulotlardan past ball olardim. Oʻshanda bizning ham maktabimizda

laboratoriya jihozlari boʻlishini juda orzu qilardim. Niyatim roʻyobga chiqdi. Hozir zamonaviy laboratoriya jihozlari yordamida dars oʻtyapmiz. Shogirdlarim oʻquv-amaliy mashgʻulotlarni qiynalmay bajaradi. Turli tadbirlarda faol ishtirok etadi.

Maktabda yaratilgan sharoit oʻquvchilarning kimyo-biologiya fanlarini oʻzlashtirishiga zamin yaratmoqda. 2011-yildan boshlab oʻquvchilar bilimlar bellashuvi va fan olimpiadasida sovrinli oʻrinlarni qoʻlga kiritmoqda. Mohinur Musulmonova 2015-2016-oʻquv yilida bilimlar bellashuvining respublika bosqichida 2-oʻrinni egalladi. 10-sinf oʻquvchisi Zulxumor Alimuhamedova innovatsion olimpiada sovrinli oʻringa muayassar boʻldi. Shuningdek, Durдона Karimova, Hojiakbar Yoʻldoshev kabi oʻquvchilar ham innovatsion olimpiada ishtirok etishdi. Aksariyat bitiruvchilarimiz oliy oʻquv yurtiga kirmoqda. Jahongir Alimuhamedov 211,9 ball bilan Samarqand davlat tibbiyot institutiga oʻqishga kirib, 3-bosqichda tahsil olmoqda. Uchqun Alimuhamedov esa shu institutning magistranti.

Oʻgʻil-qizlarning bunday natijaga erishishida tajribali muallimning xizmati katta. Har bir dars va mashgʻulot koʻrgazmali qurollar, tarqatma materiallar, test savollari asosida tashkil etiladi. 4 mingdan koʻproq test savollari oʻquvchilarni izlanishga, bilim doirasini kengaytirishga, hozirjavoblikka chorlaydi. Albatta, AKTdan foydalaniladi. Mavzuga oid amaliy mashgʻulotlar olib boriladi va toʻgʻarak mashgʻulotlarida bu jarayon davom ettiriladi.

— Barcha fanlarni aʼlo baholarga oʻzlashtirish oʻquvchilarning burchi, — dedi suhbatdoshimiz. — Oʻgʻil-qizlarning kimyoga qiziqishini koʻzidan sezib olaman. Bunday oʻquvchilar qiziqish va ishtiyoqi bilan ajralib turadi. Ularning fanimga munosabatini yanada kuchaytirish uchun qiziqarli maʼlumotlar, mashhur kimyogarlar haqida hikoyalar soʻzlab beraman. Bolalarning bilimni mustahkamlashda uyga vazifaning oʻrni katta. Topshiriqlar bolalarni qiynab qoʻymasligi kerak. Uning bajarilishini nazoratga olaman. Vazifani yaxshi bajargan oʻquvchini ragʻbatlantiraman. Haftasiga uch kun toʻgʻarak mashgʻulotlari olib borib, mavzularni mustahkamlaymiz, bilimlar bellashuvi va fan olimpiadasiga hozirlik koʻramiz.

Muallim va shifokorning xizmati bir-biriga oʻxshaydi. Shifokor inson vujudini darddan xalos etadi. Oʻqituvchi esa ruhni poklaydi, aqlni charxlaydi. Bolaning oq qogʻozdek begʻubor qalbiga oʻqish, oʻrganish asnosida yaxshilik, odob-axloq, ezgulik urugʻini qadadi. Chinakam ustoz maktabda ham, uyda ham, koʻchada ham shu haqda oʻylaydi. Turgʻun shogirdlarida darsga, kimyo faniga qiziqish uygʻotish uchun izlanadi, oʻz ustida ishlaydi. Donolarning bilganim bilmaganlarim oldida hech narsa emas, degan aqidasi amal qiladi. Kasbdoshlarining darslarini kuzatadi. Tajribali ustozlardan ham, yosh pedagoglardan ham nimanidir oʻrganadi. Ustoz bilan suhbatlashsangiz, koʻnglingiz ravshan tortadi. Koʻzlarida bolalarga xos soddalik va samimiyat balqib turadi. Ana shu xislat muallim-

ga ulugʻvorlik baxsh etadi, nazarimda. Yutuqlar boisi nimada desam, bir soʻz bilan mehnatda, deydi. Yana jilmayib qoʻshib qoʻyadi: “Ishlayapmiz, bolalarga tarbiya beryapmiz. Bu chinakam ustozga xos xislat”.

— Oʻquv dargohimizda 273 nafar oʻquvchi boʻlib, ularga 27 nafar pedagog saboq beradi, — deydi maktab direktori Shukurullo Shoyzoqov. — Ularning bir nafari oliy, 4 nafari 1-toifali oʻqituvchilar. Ular orasida Turgʻun Jonzoqov borligidan faxrlanamiz. U oʻzining kamtarin mehnati, fidoyiligi bilan ajralib turadi. Har bir darsi yosh pedagoglar uchun mahorat maktabi.

Murabbiyning yuzini yorugʻ, qaddini baland tutadigan bu — shogirdlar. Muallimning sobiq oʻquvchisi Abror Musurmonov JDPning biologiya oʻqitish metodikasi yoʻnalishini tamomlab, hozir 28-maktabda ishlamoqda. U ustozidan dars oʻtish sirlari, oʻquvchilar bilan muloqot, ish hujjatlarini yuritish, toʻgʻaraklar faoliyatini tashkil etishni oʻrganmoqda. Ustoz-shogird kimyo-biologiya fanlarini oʻqitishni yanada takomillashtirish, oʻquvchilarda bilim va koʻnikmalarni shakllantirish yoʻlida hamfikir, maslakdosh boʻlib faoliyat olib bormoqda.

Izlanuvchan pedagogning reja va niyatlari katta. Uning fikricha, maktabda monitoring taʼsir doirasini oshirish kerak. Xalq taʼlimi vazirligi saytida test savollari joylashtirilib toʻgʻri javob koʻrsatilsa, oʻquvchilarning bilim darajasi va saviyasi oʻsadi. Yana “Yilning eng yaxshi fan oʻqituvchisi” koʻrik-tanlovi ishtirokchilarining dars ishlanmalarini matbuotda muntazam yoritib borish maqsadga muvofiq.

Uning bizga aytmochi boʻlgan fikrlari koʻpligi bilinib turardi. Qoʻngʻiroq chalindi. Ustoz uzr aytib, darsga kirdi. Maktabda, qishloqda yosh pedagogni hurmat qiluvchilar, uning kasbiga havas qiluvchilar juda koʻp. Kamtar, fidoyi, jonkuyar insongina shunday havasga munosib.

Abdusattor SODIQOV,
“Maʼrifat” muxbiri

Yaxshilar yodi

Muallimning qizi

Kattaqoʻrgʻonga Sirdaryodan kelin boʻlib tushgan shifokor opa bilan oʻttiz yillar oldin tanishganman. Juda maʼrifatli ayol. Menga kerakli dorilar roʻyxatini yozib berayotganda chiroyli husnixatini koʻrib, “Oʻqituvchining bolasimisiz?” deb savol berganman. Oʻshandan beri munosabatimiz samimiy. Qoʻngʻiroqlashib turamiz.

Yaqinginada opa telefon qilib, “Yuragim tubidagi bemisl javohirim — otam haqidagi xotiralarni qogʻozga tushirdim. Imkon topsangiz bir qarab bering”, dedi.

Shifokor Jamila Abulqosi-

movnaning xotiralarini oʻqib, hayratlandim.

“Otam Abulqosim Odilov Ikkinchi jahon urushi boshlangan kezlari Sirdaryo tumanidagi 31-maktabga direktor etib tayinlangan. Oʻshanda 22 yoshli

boʻlsa-da, jamoada sogʻlom muhit yaratgan.

Ilm dargohi tumanidagi eng birinchi maktab boʻlib, ikkita tuman bolalariga xizmat qilgan.

1947-yili tumanimiz Mirzachoʻl tumanidan ajrab chiqqach, otam maorif boʻlimi mudirligiga tavsiya qilingan. Ammo u oʻzi poydevor qoʻygan maktabdan koʻngil uzolmagan.

Shu tariqa otam 43 yil — umrining eng gullagan paytidan kuzigacha shu obod maskanning issiq-sovugʻini tatib,

koʻplab bunyodkorlik ishlarini amalga oshirgan.

Sirdaryo tumanidagi hozirgi 31-maktabda zamonaviy ikki qavatli oʻquv korpusi, sport zali qurilishida bosh-qosh boʻlgan. Mehnatlari munosib baholangan.

Meni xursand qiladigan jihat, otajonim faoliyati davomida ustoz-shogird anʼanasini yoʻlga qoʻygan. Taqdir menga boshqa viloyatda, boshqa sohada faoliyat yuritishni nasib qilgan boʻlsa-da, muallimning qizi ekanligim doim faxr bagʻishlagan. Otajonim men kelin boʻlib tushgan qadrdon Kattaqoʻrgʻon tumani Mundiyan mahallasidagi 17-maktabga ham koʻp kelar-

di. Maktab bogʻiga chinor ekip bergandi. Yillar oʻtsa-da, chinorlar hanzu yashnab turibdi. Farzandlarim, nevaralarim orqasidan maktabga borsam, hanzu yashnab turgan bobochinorlarga qarab, yillar ortda qoldirgan koʻhna sogʻinchlarim uygʻonaveradi”.

Abulqosim otaning uch oʻgʻil, ikki qizi ota kasbini davom ettirayotgani, ikki farzandida sogʻliqni saqlash tizimida eʼzoz topganini bilib oldim. Ota nafaqaga chiqqach, ukalari Mirqosim Odilov maktabga rahbarlik qilib, sulola 55 yil xalq taʼlimi tizimi rivojiga hissa qoʻshibdi.

Aziza BOYMURODOVA

Kattaqoʻrgʻon tumani

Faxr

Onamdek sevimli, sharaflı kasbim

Bola edim. Harflar notanish, kitobning o'ng-tersini bilmoq qayda? Oilada besh farzandning, maktabda esa yuzlab o'quvchining mehrini qozongan onam filolog. Kechki payt hamma ishini saranjomlagach, onam daftar tekshira boshlaydi.

Uning jonsarakligi, bolaparvarligi, fidoyiligi, o'z kasbiga bo'lgan hurmat va sadoqati — hamma-hammasi qalbimni alangalatdi. O'qituvchi bo'lish qanday yaxshi!

Yillar o'tdi. Uch farzand onamning kasbini tanladik. Uning izdoshimiz, el-u yurt koriga yarash baxtiga erishdik! Turli davralarda, jamoat joylarida kim bilandir uchrashib qolsak, "Siz o'qituvchimisiz?", deya so'rab qolishadi. Ehtimol, sodda va kamtarin qiyofamiz, oddiy va sipo libos, ko'zimizdagi samimiylikka qarab shu kasb egasi ekanligimizni sezishsa kerak.

Ustozga shunday ta'rif bergan bo'lardim: u shunday salobatliki, sinfxonaga kirishi bilan hammayoq suv quygandek jimjit bo'lib qoladi. Shunday kamtar va buyukki, yonidan po'rim kiyingan

yigit yoki olifta qiz ham sergaklanib o'tadi. Har tong uni qorako'zlar intiqlik bilan kutayotganini his qilgan pedagog o'zini baxtiyor sezadi. Olijanob kasbi tufayli u keng va shinam, toza va yorug' sinfxonada ishlashga loyiq va munosib. Muallimga qop orqalash, bozor rastalarini emas, parta oralab yurish yarashadi. Unga ming-minglab o'quvchilar hurmat-ehtiromi nasib etadi.

Kasbimiz qiyin, bundan og'ri-namiz. Ammo uning sharaflı, mavqeyi-chi? Biz barcha kasblar egasini tarbiyalaymiz. Kelajakni, millatni tarbiyalagan kasb egasi — bu o'qituvchidir. O'quvchisini goh shifoxonada, goh bankda, huuq-tartibot idorasida ko'rib qolsa, "Assalomu alaykum, ustoz", degan samimiy va haroratli so'zlardan boshi osmonga yetadi! Agar "Kim

bo'lsam ekan?" mavzusida insho yozilsa, "Men kelajakda o'qituvchi bo'laman" degan fikrga duch kelsak, dunyodagi eng baxtiyor insonga aylanamiz. Demak, o'quvchida o'z kasbimizga mehr-muhabbat uyg'ota olishimiz biz uchun eng oliy mukofotdir.

Bugun ustoz mavqeyi, hurmati va obro'si yanada oshdi. Ularga ko'rsatilayotgan moddiy va ma'naviy e'tibor, g'amxo'rlik yangi bosqichga ko'tarildi. E'tibor va e'zoz mas'uliyatini oqlamoq, bildirilgan ishonchni vijdonan ado etmoq, millatning yangi, munosib avlodini tarbiyalamoq oson ish emas.

Kasb mashaqqatidan toliqqan ko'zlarimiz hamisha quvonchdan porlasin! Bejirim ajnalarimizga sevinch ko'z yoshlari oqsin, qalam-dafstar ushlagan qo'llaringiz aslo tolmasin! Farzandlar va shogirdlar kamolini ko'rish nasib etsin!

Nilufar RUSTAMOVA,
Romitan tumanidagi
1-maktab o'qituvchisi

Shodlik va mashaqqat taxti

"Quyoshni ko'rayotgan munavvar tongimiz, ezig'lik umidida shabnamlarda chayilgan beg'ubor qalbimiz kengliklaridagi eng toza tilaklar ro'yobini ko'rib ko'zlarimiz quvonchdan yashnab yursin, bolalarim".

4-sinfni bitirganimda birinchi o'qituvchimning aytgan bu so'zlar hamon qulog'im ostida jaranglab turadi. Bu hayotda yashar ekanmiz, har birimiz ustoz deb bilgan inson bor. Aslida ustozlarning eng oliysi qo'linga qalam ushlashni o'rgatgan zotdir. Siz ham men uchun ana shunday maqomdasiz.

O'g'limni 1-sinfga olib kelar ekanman, bir necha yillar oldin oyim ham meni shunday yetaklab kelgani haqida o'ylayman. O'shanda xarxasha-yu injiqliklar

qilganimni eslasam, oldingizda xijolat bo'lib ketaman.

Gohida o'qituvchilikni shodlik va mashaqqat taxti, degim keladi. Boisi, go'dakning qalbida maktabga, kitobga, o'qishga mehr uyg'otish — mashaqqat, bundan shodlanib, faxr tuyib yashash esa qahramonlik. O'quvchingiz o'sib-ulg'aygan sari ularning quvonchi quvonchingizga, yutug'i yutug'ingizga aylanar ekan. Men bugun baxtliman. Chunki siz kabi ustozman. Bu quvonchli kunlarimga siz sababchisiz.

Yaqinlashib kelayotgan bayramingiz muborak bo'lsin, aziz ustozim!

G'ijduvon tumani

Zevarshoh HAMROYEVA

Ta'kid

Majlis — ustoz ko'zgusi

4-sinfidagi o'g'lim "Ustozimiz berib yubordi", deb bir parcha qog'oz tutqazdi. Farzand haqidagi chiroyli she'r bilan boshlangan taklifnoma ekan. "Qalbi gavharday toza bo'lgan farzandlarimiz taqdiriga befarq bo'lmagan holda ota-onalar majlisiga kelishingizni iltimos qilaman" degan jumla ta'sirida ish kuni bo'lsa ham maktabga yo'l oldim.

O'qituvchi har galgiday, bola tarbiyasiga doir qiziqarli testlar, muhim ma'lumotlar tayyorlab kelganini aytdi. Sahna ko'rinishlarini tasvirga olishni bilmaganim uchun "Telegram" tarmog'i orqali kadrlarni yuborishini muallimadan iltimos qildim. Esiz, vaqtim bemalol emas... Uzrimni aytib xayrlasharkanman, izlanuvchan o'qituvchi bolamga ta'lim berayotganidan ko'nglim to'ldi. Muallima tavsiyalaridan bu safar bebahra qoldim. O'tgan yilgi ota-onalar majlisi xayolimda jonlandi.

O'qituvchi farzandlarimizdan "Onangizning qaysi xislatlari yoqadi-yu, qaysilari yoqmaydi?", "Onangiz sizga qanday munosabatda bo'lishini xohlaysiz?" (majlisga asosan onalar kelishi bois) kabi savollarga javob yozdirib olibdi. O'g'limning fikri bilan tanishdim: "Oyimning hamma xislatlari menga yoqadi. Menga kam e'tibor bersa ham onamni ukamdan ko'proq yaxshi ko'raman. Buni oyim bilmasa kerak, chunki xato ish qilib qo'ysam, meni

yaxshi ko'rganingda bunday qilmasding, deb urishadi".

Ikkinchi savolga munosabat: "Ishdan kelganidan so'ng, shoshib uy ishlarini qilmay, baholarimni ko'rib, meni maqtab qo'yishini juda-juda istayman. Ovqatlan-ganimizdan keyin uyda vazifalarimizni qildirib, yana uy ishlariga sho'ng'iydi. Oyimning ishi hech tugamaydi. Axir bunaqada charhab, og'rib qolishi mumkin-ku?".

Ko'zimda aylangan yoshni artdim-u, bolam boyaqishning "Oyi, ishlaringiz tugay dedimi, qachon uxlaysiz? Yaxshi ertaklaringizdan aytib bering", deya zorlanishi, unga javoban "Uxlayver, ertak kitoblar olib berdim-ku, mening eski ertaklarimni ha-deb eshitaversanmi, hali kir yuvishim, kiyimlarni dazmollashim kerak!" deya qo'rs javob berganimni esga oldim. Demak, unga ko'proq e'tibor berishim kerak ekan. Uning kitobni mustaqil o'qishdan ko'ra mendan ertak tinglashga xohishi ko'proq ekan-da.

Qo'yingki, dilbandim mendan sir tutgan gaplarini qog'ozga bor holicha to'kib solibdi.

Barcha onalarni kuzataman. Kimlardir ko'zida yosh aralash bolasining yozgan-lariga kulib qo'ydi. Qaysidir ona xayolga toldi. Tepa sochi tikka bo'lganlar-chi? Ustoz barchamizni bir lahza farzandimiz bilan "yuzlashtirdi".

Eng xijolatli vaziyat 40 xil imlo orasidan o'zimizga tegishlisini topib olish bo'ldi. O'g'limning yozuvini yaxshi taniman, darrov ajrata olaman, deb o'ylar-



Ustozlar madhi

*Ustozlar, ko'magingiz ila o'rgandik chin hayotni,
Yangilikka yo'l ochib, xalq bilan muloqotni,
Dunyo bilan bo'ylashib keng yozganmiz, qanotni,
Har ishda madadkor-u maslakdosh muallimsiz,
Dilimizga yo'l topgan Siz dildosh muallimsiz.*

*Sizdan olganim rostdir ilm-u adab sabog'in,
Ustoz obod aylagay fikr-u tafakkur bog'in,
Aslida, Siz yoqqansiz insoniylik chirog'in,
Mehribon, shirinsuxan, xush odat muallimsiz,
Ilm istar ko'ngilga saodat muallimsiz.*

*Forobiyning avlodi — Sizdir o'sha Abu Lays,
Shogirdlarin quvonchi, hayotimiz ko'rk, fayzi,
Ilm yo'lini topdi necha Farhod, necha Qays,
Bilimlar maxzaniga keng makon muallimsiz,
Vatan magar quyoshdir, Siz osmon muallimsiz.*

*Kitobga muhabbatni uyg'otgan ham o'zingiz,
Kitob bo'lib qolgandir aytgan har bir so'zingiz,
Moziydan sabog' olib tavof etdik izingiz,
Beruniy, Ibn Sino, Navoiy muallimsiz,
Behbudiy, So'fizoda, Avloniy muallimsiz.*

*Sabog'ingiz qo'l keldi Haq yo'lida najotga,
O'zingiz bosh bo'ldingiz sport, san'at, ijodga,
Dunyo ahli tan berdi maqom-u munojotga,
Ijod degan gulshanni yashnatgan muallimsiz,
Kelajakka zo'r qadam tashlatgan muallimsiz.*

*Yo'l ochdingiz hamisha yorug'lik, nur-ziyoga,
Sehringiz yetakladi yangi fikr, g'oyaga,
O'zbekiston bo'y-bastin ko'rsatganda dunyoga,
Vatan deya shukrona aylagan muallimsiz,
Shul Vatanni qalblarga joylagan muallimsiz.*

Ashurali BOYMUROD

dim. Qarangki, unikiga quyib qo'ygandek o'xshash yozuvlar anchagina ekan. 4 nafar onadan tashqari barcha yanglishdi. Ustoz tomonidan bolaga e'tiborsizlikning oddiy ko'rinishi sifatida qaralgan bu holat ham bizni ancha hushyor torttirdi. Psixolog ta'kidlagan kundalik muammolar va ularning oqibatlarini bartaraf etishga doir ko'rsatmalar bizga ma'qul keldi.

Majlisdan ma'naviy-ruhiy quvvat olgan holda chiqdik. Ota-onalar majlisiga vaqt topish kerak ekan. Ko'pincha ota-onalarning "E, bormayman shu majlisiga, pul beringdan boshqa gap yo'q. A'lochilarni maqtashadi, ikkichilarni ayblashadi", deya nolishini eshitib qolamiz. Ota-onalarni ustozga hurmatsizlik, farzandiga e'tiborsizlikda ayblashdan oldin ayrim pedagoglar ota-onalar majlisini noan'anaviy tashkil etish ustida izlansalar, maqsadga muvofiq bo'lardi. Bir parcha qog'ozning "qudratidan" maktabga bormaslikka istihola qilgan ota-onani zeriktirib qo'ymaslikka ustoz ham harakat qilishi lozim.

Yangi o'quv yili boshlandi. Hademay birinchi chorak yakunlanadi. O'qituvchi ota-onaning yo'lga intizor. Ular faolligini o'quv yili oxirigacha saqlab qolishda esa pedagogning zamonaga mos yondashuvi muhim o'rin tutadi.

Munojat MO'MINOVA,
jurnalist

Tinchlik bitimi imzolanishi muqarrar

Afg'oniston rasmiylari AQSh va Tolibon o'rtasida "deyarli imzolangan" tinchlik bitimi yuzasidan o'z xavotirlarini izhor etdi. Prezident matbuot kotibi Siddiq Siddiqiy shartnoma nusxasi bilan tanishib chiqqanini, ammo uning tarkibi va shartlari qanday bajarilishi haqida savollar tug'ilganini ma'lum qildi. AQShning Afg'oniston bo'yicha maxsus vakili Zalmay Xalilzod 2-sentabr kuni Tolibon va AQSh hukumati "deyarli kelishuvga kelgani"ni bildirgan edi. Shartnomada Tolibon o'z boshqaruvidagi har qanday hududni AQSh va uning hamkorlarini nishonga oluvchi terrorchilar uchun boshpanaga aylantirishni majburiyatini o'z zimmasiga olgan. Ikki taraf Afg'onistondan G'arb kuchlarini bosqichma-bosqich olib chiqib ketishga kelishib olgan. Kelishuvga erishilgani haqidagi xabar tarqalishi ortidan to'qqiz nafar AQSh sobiq elchisi Amerika qo'shinlari mamlakatdan chiqib ketsa, Afg'oniston fuqarolar urushi qa'rida qolishi haqida ogohlantirdi. Ular buning oldini olish uchun Afg'oniston hukumati ishtirokida "haqiqiy tinchlik bitimi"ga erishish kerakligini aytishdi.

AQSh prezidenti Donald Tramp mamlakat qo'shinlarining Afg'onistondan olib chiqilishi haqidagi kelishuvni Tolibon bilan shaxsan imzolamaydi. Ochiq-oshkor ko'rinib turibdiki, bu Oq uy rahbariga keyingi "siyosiy o'yinlar" uchun imkoniyatni saqlab beradi: Tramp istagan lahzada terrorchilar bilan shartnomalarni bekor qila oladi, kelishuv ostida AQSh Davlat kotibi Mayk Pompeoning imzosi bo'ladi.

Afg'onistonning nufuzli "Jadayi Abreshom" (Ipak yo'li) haftanasida AQSh hamda Tolibon harakati (hujjat loyihasida Afg'oniston islom amirligi) o'rtasidagi ehtimolda tutilgan kelishuv matni chop etildi. Maqola muqaddimasi-da toliblarning yuqori martabali vakilining so'zlari o'rin olgan bo'lib, unda ushbu hujjat shakli bo'yicha emas, mazmuni bo'yicha toliblarning Amerika tomoni bilan erishgan kelishuviga 80 foiz muvofiq kelishi aytiladi. Aynan ushbu kelishuv loyihasi turli afg'on guruhlarida muhokama etilmogda.

AQSh va Tolibon o'rtasidagi tinchlik shartnomasi loyihasi 11 maddadan iborat bo'lib, "Afg'oniston bo'yicha Doha tinchlik kelishuvi" (Amerika-Tolibon muzokaralari Qatar poytaxti Dohada o'tkazilgani uchun) deb nomlanadi.

Kelishuv muqaddimasi aytilishicha, "Afg'oniston islom amirligi va Amerika Qo'shma Shtatlari Afg'onistondan Amerika va NATO qo'shinlarini olib chiqish maqsadida, Qatar poytaxti Dohada o'tkazilgan ikki tomonlama muzokaralar natijasida mazkur kelishuvni tuzdilar".

Loyihaning birinchi maddasida shunday deyiladi: "Amerika tomoni hech qanday shartlarsiz o'z qo'shinlarini, maslahatchilarini, Afg'onistonning turli sohalarda faoliyat ko'rsatayotgan, shartnoma asosida ishlayotgan xizmatchilarini olib chiqish majburiyatini oladi". Ikkinchi maddada "Afg'oniston islom amirligi (AIA) Afg'oniston mustaqil davlati hududida boshqa mamlakatlarga qarshi ishlatilmaydi, shu bilan birga AIA boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaydi". "Afg'oniston barcha afg'onlar uchun umumiy uy hisoblanadi va AIA Afg'oniston hududidan hech bir xorijiy davlatlarga boshqa mamlakatlar yoki dunyoga tahdid solishga ruxsat bermaydi yoki ularning ichki ishlariga asossiz aralashmaydi", deyiladi kelishuv loyihasining uchinchi maddasida.

To'rtinchi maddada "AQSh 14 oy mobaynida bosqichma-bosqich o'z qo'shinlari va NATO kuchlarini Afg'onistondan olib chiqish majburiyatini oladi": "Bosqichma-bosqich olib chiqish tartibi va

jadvali ushbu kelishuvning ajralmas qismi hisoblanadi". O'z navbatida, beshinchi maddada "AIA mamlakatdan olib chiqilayotgan paytda Amerika qo'shinlari, texnikasi, anjomlariga hech qanday ziyon yetkazmaslik, Amerika qo'shinlariga qarshi harbiy operatsiyalar o'tkazmaslik majburiyatini oladi": "Amerika tomoni ham Afg'onistondan qo'shinlarini olib chiqish davrida Tolibonga qarshi harbiy operatsiyalar o'tkazmaydi, havodan turib toliblarni bombalaymaydi va boshqa qidiruv operatsiyalarini o'tkazmaydi. Amerika tomoni bu paytda Afg'oniston hukumati bilan harbiy hamkorlikdan tutilib turadi".

Doha hujjati loyihasining beshinchi maddasida aytilishicha, "mazkur kelishuv imzolangan paytdan qo'shinlar to'la olib chiqilguncha tomonlar o'rtasida o't ochishni to'xtatish e'lon qilinadi": "O't ochishni to'xtatish afg'on hukumati va uning qurolli kuchlariga taalluqli emas. Mazkur kelishuv imzolanishi bilan bir vaqtning o'zida Afg'oniston hukumati va AQSh o'rtasida erishilgan xavfsizlik to'g'risidagi kelishuv o'z kuchini yo'qotadi".

"AIA Afg'onistondan xorij qo'shinlari olib chiqilganini e'lon qilish bilan bir vaqtning o'zida xorijiy davlatlardan birida afg'onlararo muloqotni yo'lga qo'yish bo'yicha faol amaliy harakatlarga qo'l uradi. Afg'onlararo muloqotning birinchi bosqichi bir oy mobaynida yuz berishi kerak", deyiladi kelishuv loyihasining oltinchi maddasida.

Yettinchi maddada qayd etilishicha, Tolibon "butunafg'on hukumatini tashkil etish borasidagi o'zining doimiy qarashlariga amal qilib, jamiyatning barcha qatlamlarini, mamlakatning barcha xalqlarini va mamlakat ichkarisidagi barcha dolzarb siyosiy kuchlarni qamrab olgan, har bir afg'on o'zini bunday hukumatda ko'ra oladigan hukumatni tuzish majburiyatini oladi".

Sakkizinchi maddada toliblar "har bir afg'onning individual va ijtimoiy huquqlariga rioya qilish" majburiyatini o'z zimmasiga oladi": "Shunday qilib ayollarning barcha huquqlari muqaddas islom dini arkonlari, mamlakatdagi an'ana va urf-odatlar asosida taqdim etiladi. So'z erkinligi va OAV erkinligi oliy milliy davlat manfaatlariga muvofiq va islom asosida kafolatlanadi".

Kelishuv loyihasining to'qqizinchi maddasi asirlar va garovdagi o'zaro almashish masalasiga bag'ishlangan: "Xorijiy turmalarda yoki Afg'oniston hukumati tegishli qamoqxonalarda qola-



ytgan AIA tarafdori, unga nisbatan fuqaroviy talablar va jinoiy ta'qib yo'q bo'lsa, shuningdek, unga qo'yilayotgan jinoyatlar isbotlanmagan taqdirda, yaxshi niyat tamoyillariga amal qilib va o'zaro ishonchni mustahkamlash maqsadida hech qanday shartsiz ozod qilinadi". "Shunday holatda Amerika harbiylari, shu qatori boshqa xorijiy mahbuslar, jumladan, AIA turmalari-da qolayotgan Afg'onistondagi Amerika universiteti o'qituvchilari so'zsiz ozod qilinadi".

Kelishuv loyihasining o'ninchi maddasida Tolibon "Amerika qo'shinlarining Afg'onistondan olib chiqilishi yakunlaniguncha qadar (tartibi mazkur kelishuvning to'rtinchi maddasida belgilanganidek) afg'onlararo muloqot hamda mamlakatda yangi boshqaruvni shakllantirish jaronini yakunlaydi, oxir-oqibat Afg'oniston xalqi va xalqaro hamjamiyatni mamlakatda mustaqil islomiy tartibot shakllantirilganiga ishtirokchilik kerak".

O'n birinchi maddada kelishuv loyihasi "AIA va AQSh o'rtasida imzolana-yotgani" qayd etiladi: "AQSh nomidan uni Davlat kotibi Mayk Pompeo imzolaydi, AIA nomidan Mulla Abdul G'ani Birodar imzolaydi". Ayni o'rinda qayd etilishicha, "ushbu kelishuv Afg'oniston hukumati va uning organlariga hech qanday aloqador emas".

O'n birinchi maddada aytilishicha, "kelishuvni har tomonlama bajarish, shuningdek, xalqaro kafolatlarni olish maqsadida, kelishuv ostiga Islom Konferensiyasi Tashkiloti, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi va Qatar davlati" vakillari imzo chekshadi.

Amerika va Tolibon o'rtasidagi kelishuv loyihasi tahlili bir necha xulosalar qilishga asos beradi.

Birinchi, ochiq ko'rinib turibdi, ushbu hujjat Amerikaning misli ko'rilmagan kamsitilishi hisoblanadi. Shu qadar ulkan harbiy, iqtisodiy va siyosiy qudratiga qaramay, Amerika SSSR va Buyuk Britaniyaga o'xshab sharmandalarca Afg'onistonda mag'lub bo'ldi. Undan ham kattaroq haqorat 2011-yil 11-sentabrda "Al-Qoida" terrorchi tashkiloti tomonidan amalga oshirilgan. O'shanda terrorchilar yagona yetakchi davlatning Nyu-Yorkdagi osmono'par va Pentagon binolarini qarshiliksiz nishonga olgan. Undan keyingi deyarli 20 yil davom etgan Afg'onistondagi urush AQShga samarali imperiya maqomini qaytarolmadi.

Ikkinchidan, AQSh 14 oy muddatda o'z askarlarini Afg'onistondan olib chiqadi, toliblarning kelishuvning yettinchi maddasida ko'zda tutilganidek, "mustaqil afg'on hukumati"ni shakllantirish jaroniga boshchilik qilishiga yo'l ochib beradi. Bu bilan Vashington og'ir paytlarda ittifoqchilarini tashlab ketishini namoyish

etdi. Negaki, hozirgi toliblarning afg'on hukumatini Doha kelishuvlariga qo'shmaslik borasidagi talabiga rozi bo'ldi. Boshqa tomondan, xavfsizlik to'g'risida avval Kobul bilan imzolangan kelishuvlarni bekor qilish arafasida turibdi. Agar shartnoma loyihasi matniga ishonilsa, yaqin 14 oy ichida amerikaliklar o'z harbiy bazalaridan turib, Tolibon

jangarilari va afg'on harbiylari o'rtasidagi birodarkushlik urushini tomoshabin bo'lib kuzatadi. Uchinchidan, ahamiyatlisi, toliblar "o't ochishni to'xtatish" strategiyasi doirasida 2020-yil oktabrgacha AQSh va NATO askarlariga hujum qilmaydi, biroq milliy armiya va politsiyadagi afg'on harbiy xizmatchilariga qarshi qirg'inni davom ettirishga tayyor.

To'rtinchidan, hujjatga prezident Donald Tramp va toliblar yetakchisi Shayx Haybatulloh o'z imzolarini qo'yishga tayyor emas. Balki ular Doha konvensiyasining real amalga oshirishiga ishonmas?! U keyin bir varaq keraksiz matohga aylanib qolmasmi? Xavotirlar biroq o'zini oqladi. "Twitter"da yozishicha, Tramp yaxshanba kuni Afg'oniston prezidenti Ashraf G'ani va Tolibon rahbariyati bilan uchrashishi kerak edi. Biroq Tolibon jangarilari Amerika askari o'limiga olib kelgan yaqindagi hujumga javobgarlikni zimmasiga olgach, Tramp Kepm Devid qarorgohida bo'lib o'tishi kerak bo'lgan maxfiy uchrashuvni bekor qildi.

O'ttmishda tarixiy tinchlik muzokaralariga erishilgan joy sifatida mashhur bo'lgan Kemp Devidda Tolibon bilan yuzma-yuz uchrashish AQSh prezidenti tomonidan g'ayritabiiy diplomatik harakat bo'lishi mumkin edi.

Ayniqsa, bu 2001-yil 11-sentabrdagi AQShga qilingan hujumlarga 18 yil to'lgan sanada bo'lishiga e'tibor qaratilgandi. AQShning yuqori martabali muzokarachisi tinchlik sulhi yqan kunlarda kuni imzolaniishi mumkin, degan edi. Biroq Trampning yozgan tviti deyarli bir yil davom etgan va Tolibon "Amerika qo'g'irchog'i" deb atagan Afg'oniston hukumatini chetga surib qo'ygan mashaqqatli muzokaralarni nihoyasiga yetkazdi.

"Afsuski, Tolibon yolg'on ta'sir o'tkazish vositalarini ko'rsatish uchun Kobulga hujum qilgani va bizning buyuk askarlari-mizdan birini o'ldirganini tan oldi. Men zudlik bilan uchrashuvni bekor qildim va tinchlik muzokaralarini to'xtatdim", deb yozdi Donald Tramp.

Toliblar bilan asosiy muzokarachi Zalmay Xalilzod Afg'oniston poytaxtiga Doha muzokarasi loyihasini keltirib bo'lgandi. Keyin u erishilgan "yutuqlar" bilan NATOdagi ittifoqchilarini xursand qilish uchun Bryusselga jo'nab ketdi. So'ngra Xalilzodni Osloda kutishayotgandi, aynan Norvegiya poytaxtida kelishuv loyihasining 5- va 10-moddalariga muvofiq, "afg'onlararo muloqot"ni boshlash rejalashtirilmoqda. Biroq Tramp qaroriga qaramay, aloqibat tinchlik bitimi yaqin kunlarda imzolanishi muqarrar.

Tarixdagi bugun

Oktabrning ilk haftasidagi hodisalar

30-SENTABR — O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOMONIDAN BIRINCHI XALQARO HUJJAT RATIFIKATSIYA QILINGAN KUN

1920-yil — Buxoro Xalq Sovet Respublikasi Markaziy Revkomi "Yer to'g'risida"gi dekretini qabul qildi. Arxiv hujjatlarida keltirilishicha, dekretga ko'ra, faqat Eski Buxoro tumanlari va Chorjo'y bexligida sobiq amir va beklarga qarashli 10 ming tanob yer musodara qilinib, kambag'al dehqonlarga taqsimlab berildi.

1939-yil — O'zbekiston Respublikasi xalq o'qituvchisi, buxorolik Oliy Mahmudova tavallud topdi. U 1962-yildan Jondor tumanidagi 3-maktabda matematika va chizmachilik fanlaridan dars bergan.

1943-yil — yangiyo'lik Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi Muhamed Ziangarov (tavalludi — 1923-yil) Dnepropetrovsk viloyati Solonyovye tumani Voshkovoye qishlog'ida vafot etdi. U Dnepr daryosini kechib o'tishda jasorat ko'rsatdi, shuning uchun 1944-yil 19-martda (vafotidan so'ng) Qahramon unvoniga sazovor bo'ldi.

1946-yil — suxandon, O'zbekiston xalq artisti Mirzohid Rahimov tavallud topdi.

1991-yil — O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari VII sessiyasida O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi asoslari to'g'risidagi qonunga konstitutsiyaviylik maqomini berish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi.

1991-yil — mustaqil O'zbekiston Respublikasi tomonidan birinchi xalqaro hujjat — Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi imzolandi.

1991-yil — respublika Oliy Kengashi Latviya, Litva va Estoniya respublikalari mustaqilligini e'tirof etish to'g'risida qaror va shu respublikalar Oliy Kengashlariga Murojaatnoma qabul qildi. Jumladan, Latviya Respublikasining Oliy Kengashini, butun xalqini Latviya to'la davlat mustaqilligiga erishganligi, u xalqaro ko'lamdagi keng tanilganligi va Birlashgan Millatlar Tashkilotiga qabul qilinganligi bilan tabriklandi. Xuddi shu mazmudagi murojaatnomalar Litva va Estoniya Respublikalari Oliy Kengashlari nomiga ham yuborildi.

1995-yil — Toshkentda boks bo'yicha Osiyo chempionati boshlandi.

2017-yil — O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish to'g'risida"gi farmonni imzoladi. Unga ko'ra, Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi.

1-OKTABR — O'QITUVCHI VA MURABBIYLAR KUNI

1864-yil — Mixail Chernyayev boshchiligidagi rus qo'shinlari Chimgent yo'lini kelib Oqo'rg'on tepaligiga o'mashdi va Toshkentni qamal qilib, to'plardan o'qqa tutdi. Toshkentliklar shaharni qattiq turib himoya qildi. Qo'ndan xonlik laskar-boshisi Mulla Alimqul mingboshi ko'p ming kishilik qo'shin bilan Toshkentga yetib kelgach, Chernyayev qo'shinlari Chimgentga chekinishga majbur bo'ldi.

1875-yil — general Trotskiy Andijonga hujum qilish haqida buyruq berdi. Istilochilar shaharga yaqinlashganlarida Po'latxonning otiqlari hujumga o'tidilar. Biroq dushman qo'li baland kelib, Vatani himoyachilarining hujumi qaytarildi. Bosqinchilar etralab soat 8 da shaharga kirib kelishdi. Ular O'rda maydoniga ikki yo'l bilan bordilar. Birinchi kolonnaga polkovnik Skobelev, ikkinchisiga baron Miller-Zakomelskiy boshchilik qildi.

1918-yil — Xiva xoni Asfandiyorxon (hukmronligi: 1910—1918-yillar) Jumaidxonning o'g'li Eshim boshchiligidagi suiqasdchilar guruhi tomonidan o'z saroyida pichoqlab o'ldirildi.

1920-yil — taravept olim, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi Gulbahrom Sulaymonova (vafoti — 1984-yil) dunyoga keldi.

1920-yil — Toshkentda xalq maorifi institutlari (inproslar), rus tilida ta'lim beradigan K.A.Timiryazev nomli o'lka ahamiyatiga ega bo'lgan oliy pedagogika o'qu yurti, o'zbek xalq maorifi instituti, qirg'iz va tatar maorifi institutlari ochildi.

1931-yil — Qashqadaryo viloyatida Qarshi tumani tashkil etildi.

1933-yil — Andijon viloyati Marhamat tumanining "Oq oltin" gazetasi chiqq boshlandi.

1938-yil — agrokimyogard, tuproqshunos olim, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi Jo'raqul Sattorov dunyoga keldi. U 1955—1999-yillarda Samarqand davlat universiteti rektori lavozimida ishlagan va "nav agrokimyosi"ga asos solgan.

1949-yil — urganchlik O'zbekiston Respublikasi xalq o'qituvchisi Quronboy Nurimov tavallud topdi. U ish faoliyati davomida aniq fanlarga ixtisoslashgan maktab va sinflar tashkil etgan.

1957-yil — O'zbekiston SSR Oliy Sovetining sessiyasida "O'zbekiston SSRda majburiy yetti yillik ta'limni to'liq amalga oshirish to'g'risida"gi qonun qabul qilindi.

1993-yil — O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov "Xalqaro qariyalari kuni munosabati bilan respublikaning keksa fuqarolarini moddiy rag'batlantirish to'g'risida" Farmon chiqardi. Shu kunning o'zida Prezidentning ushbu bayram munosabati bilan respublikaning keksa fuqarolariga tabrigi e'lon qilindi.

1997-yil — shu yilning 25-aprelida tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat jriroya kodeksi amalga kiritildi.

2000-yil — o'zbekistonlik bokschi Muhammadqodir Abdulloyev boks bo'yicha XXVII yozgi Olimpiada chempioni bo'ldi.

2014-yil — Toshkentda Minor sharqi majmuriy qurbon hayiti kuni ochildi. Masjid binosi an'anaviy ushbu o'z-mo'chiligi uslubida

qurilgan. Uning ikki minorasi va osmonrang gumbazi bor. Masjid 2400 dan ortiq namozxonaga mo'ljallangan

2-OKTABR — O'ZBEKISTON ISLOM KONFERENSIYASI TASHKILOTIGA A'ZO BO'LGAN KUN

1866-yil — rus qo'shinlari Buxoro amirligi chegaralariga bostirib kirdi va O'rtepa shahrini ishg'ol qildi.

1913-yil — qurilish sohasidagi olim, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi Abbas Ashrakov tavallud topdi. U zilzilabardosh binolar yaratishga asos solgan olimlardan biri.

1924-yil — Butun Xorazm xalq vakillarining beshinchi qurultoyi bo'lib o'tdi. Unda O'rta Osiyoning milliy-hududiy chegaralanishi to'g'risida qaror qabul qilindi.

1949-yil — bokschi, xizmat ko'rsatgan sportchi, 1974-yilda 75 kg vazn toifasida jahon chempioni bo'lgan Rufat Risqiyev tavallud topdi. U 1999-yilda "El-yurt hurmati" ordeni bilan mukofotlangan.

1990-yil — huquqshunos olim, O'zbekiston Fanlar akademiyasining muxbir a'zosi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi Otoboy Eshonov (tavalludi — 1916-yil) vafot etdi.

1995-yil — O'zbekiston Respublikasi bilan Ozarbojyon Respublikasi o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatildi.

1996-yil — O'zbekiston Respublikasi Islom konferensiyasi tashkilotiga a'zo bo'ldi.

1996-yil — Shavkat Rahmon taxallusi bilan ijod qilgan shoir, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Shavkat Rahmonov (tavalludi — 1950-yil) vafot etdi.

2000-yil — rangtasvir ustasi, O'zbekiston xalq rassomi Lutfulla Abdullayev (tavalludi — 1912-yil) vafot etdi. U 1995-yilda Abdulla Qodiriy nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti laureati bo'lgan, 1999-yilda "El-yurt hurmati" ordeni bilan mukofotlangan.

3-OKTABR — O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI DAVLAT BOSHQARUVI AKADEMIYASI OCHILGAN KUN

1918-yil — qo'ng'iroqlar sulolasiga mansub bo'lgan hukmdor, Muhammad Rahimxon II Feruzning o'g'li Said Abdullaxon ukasi Asfandiyorxon suiqaad natijasida o'ldirilgach, Jumaidxon tomonidan Xivaga xon qilib ko'tarildi.

1923-yil — Farg'onava vodiysidagi Sovet tuzumiga qarshilik ko'rsatish harakatining bosh qo'mondoni Islom Polvon qizillar tomonidan asir o'ldi.

1943-yil — andijonlik Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi To'xtasin Mirzayev Dnepropetrovsk viloyati Vermedneprovsk rayonidagi Mishurin Rog qishlog'i uchun bo'lgan jangda alohida jasorat ko'rsatdi. U 1943-yil 20-dekabrda Qahramon unvoniga sazovor bo'ldi.

1958-yil — O'zbekiston xalq artisti Abror Hidayatov (tavalludi — 1900-yil) vafot etdi. U 2000-yilda (vafotidan so'ng) "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofotlangan.

1995-yil — Toshkentda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi (hozirgi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi)ning tantanali ochilish marosimi bo'ldi.

4-OKTABR — QATAG'ONNING QONLI QILICHI KO'TARILGAN KUN

1917-yil — Aleksandr Kerenskiy (yashagan yillari: 1881—1970-yillar) boshchiligidagi Muvaqqat hukumat maxsus telegramma yo'llab, yaqin orada Toshkentda universitet ochilishini ma'lum qildi va shu munosabat bilan Turkiston ilmiy-madaniy jamoatchiligini tabriklandi. Telegramma 7-oktabrda 248-sonli maxsus buyruq bilan Toshkentda e'lon qilindi.

1938-yil — XX asr yangi o'zbek adabiyotining ulkan namoyandalari: o'zbek romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriy (tavalludi — 1894-yil), Cho'lpon taxallusi bilan ijod qilgan shoir, yozuvchi, dramaturg, tarjimon, tanqidchi hamda jamoat arbobi Abdulhamid Sulaymonov o'g'li Yunusov (tavalludi — 1898-yil), yozuvchi, tarixchi, adabiyotshunos, davlat va jamoat arbobi Abdurauf Fitrat (tavalludi — 1886-yil) Toshkentda otib tashlandi. Ularning qatl etilishi e'lon qilingan hukmga u ijro etilganidan bir kun keyin — 5-oktabrda imzo chekilgan edi.

1938-yil — tilshunos, folklorshunos olim G'ozil Olim Yunusov (tavalludi — 1893-yil) o'tildi. U o'zbek xalq eposi — "Alpomish" dostonining ilk tadqiqotchilaridan biri edi. 1989-yilda o'ldirilgan.

1938-yil — davlat va jamoat arbobi Sa'dullaxo'ja Tur-sunxo'yayev (tavalludi — 1891-yil) Toshkentda bo'lgan SSSR Oliy sud harbiy kollegiyasining majlisida otishga hukm qilindi va o'sha kuni otib tashlandi. U 1957-yil 1-avgustida o'ldi.

1938-yil — harbiy arbob, o'zbek diviziyasi qo'mondoni Mirkomil Mirsharopov (tavalludi — 1900-yil) o'zbek diviziyasini milliyilashtirish va bu diviziyaga yordamida O'zbekistonni SSSR tarkibidan ajratib olish va mustaqil davlatni barpo etishga urinishda ayblanib, otib tashlandi.

1938-yil — o'zbek pedagogi, jurnalist, teatr tanqidchisi, tilshunos Ramazon Qayum (tavalludi — 1900-yil) "xalq dushmani" sifatida o'tildi. U o'zbek maktablari uchun dastlabki ona tili darsliklarini yaratgan edi. 1957-yilda o'ldi.

1938-yil — Otajon Hoshim taxallusi bilan ijod qilgan adabiyotshunos, jamoat arbobi Otajon Hoshimov (tavalludi — 1905-yil) "xalq dushmani" sifatida Toshkentda otib tashlandi.

1947-yil — farg'onalik Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi Mo'yiddin Hasanov (tavalludi — 1917-yil) vafot etdi. U 1943-yil 1-noyabrda Kerch shahri yonidagi Eltigen shaharchasi (hozirgi Geroyevskoye)ni ozod qilishda ko'rsatgan jasorati uchun 17-noyabrda Qahramon unvoni bilan mukofotlangan.

1988-yil — rejissor Abdurahmon Abdunazarov boshchiligidagi bir guruh yosh aktyorlar Mulla To'ychi Toshmuhammedov nomidagi Qashqadaryo viloyat musiqali drama teatridan ajralib chiqib, "Muloqot" teatr studiyasini tashkil etdi.

1998-yil — O'zbekiston xalq artisti Manzura Hamidova (tavalludi — 1914-yil) vafot etdi. U 1943-yildan umrining oxirigacha Yosh tomoshabinlar teatri aktrisasi sifatida faoliyat yuritdi. 1997-yilda "Mehnat shuhrati" ordeni bilan mukofotlandi.

2000-yil — Oqsaroyda Sidneydagi Olimpiada o'yinlarida oltin, kumush va bronza medalni qo'lga kiritgan olimpiadachilarni tabriklash marosimi bo'lib o'tdi.

2005-yil — adabiyotshunos olim, tanqidchi, O'zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov (tavalludi — 1929-yil) vafot etdi.

5-OKTABR — STALINGA SUIQASD QILISHDA AYBLANGAN SPORTCHI OTILGAN KUN

1462-yil — temuriyozda Abu Said (hukmronligi: 1451—1469-yillar) Ulug'bekning nabirasi Muhammad Jo'g'iy tomonidan egallab olingan Shohruhuniy Xo'ja Ahromning yordami bilan qayta egallab, isyonni bostirishga muvaffaq bo'ldi.

1905-yil — qoraqalpoq adabiyotshunosi, dramaturg va adib Najim Dovqorayev (vafoti — 1953-yil) tavallud topdi. U 1946—1948-yillarda Qoraqalpoq'iston Yozuvchilar uyushmasiga raislik qilgan.

1921-yil — suxandon, O'zbekiston xalq artisti Qodir Tojiyev dunyoga keldi (vafoti — 2001-yil). U uch mingdan ortiq hujjati filimga ovoz bergan. 1994-yilda "Jasorat" medali, 1998-yilda "El-yurt hurmati" ordeni bilan mukofotlangan.

1936-yil — kinorejissor-operator, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Turdi Nodirov dunyoga keldi. U o'z ijodiy faoliyatini 1959-yilda "Mahallada duv-duv gap" filmiga operatorlikdan boshlagan.

1937-yil — adabiyotshunos olim Najmiddin Komilov tavallud topdi. U 1999—2001-yillarda Markaziy saylov komissiyasi raisi sifatida faoliyat yuritgan.

1938-yil — O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport tashkilotchisi bo'lgan Hidayot Inoyatov (tavalludi — 1913-yil) Moskva o'rtakizilgan fizkulturchilar kunida Stalinga suiqaad qilmoqchi bo'lgan, deb ayblandi va otib tashlandi. U 1958-yilda o'ldi.

1972-yil — urug'lik yunon-rum kurashchisi, xalqaro toifadagi sport ustasi, O'zbekiston iftixori Asliddin Xudoyberdiyev tavallud topdi. U 2003-yilda Osiyo chempioni bo'lgan.

2000-yil — etnograf olim, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi Karim Shoniyozov (tavalludi — 1924-yil) vafot etdi.

2016-yil — Prezident Shavkat Mirziyoyevning "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni imzolandi.

6-OKTABR — BUXORO XALQ SOVET RESPUBLIKASI TUZILGANLIGI E'LON QILINGAN KUN

1398-yil — Hindiston yurishiga o'tangan Amir Temur Chinoz daryosi sohilidagi qal'a yonida to'xtadi va daryodan kechib o'tdi.

1578-yil — Samarqandning 1572—1578-yillardagi hokimi, shayboniyardan bo'lgan Junvonmar Alixon o'ldirildi. Jo'ybor xojalaridan Muhammad Islom uning piri bo'lgan.

1908-yil — meteorolog olim, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi Viktor Bugayev (vafoti — 1974-yil) tavallud topdi. U 1935—1940-yillarda O'zbekiston ob-havo byuroosi boshlig'i bo'lgan. Jahon ob-havo xizmatini tashkil etish tashabbuskorlaridan biri.

1920-yil — Buxoro amirining yozgi saroyi — Sitorayi Mohi Xossada Butun Buxoro xalq vakillarining birinchi qurultoyi boshlandi. Unda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi va Fayzulla Xo'jayev boshchiligidagi birinchi hukumat — Xalq Nozirlar Kengashi tuzilganligi e'lon qilindi.

1921-yil — Turkiston Markaziy Jiroiya Qo'mitasi va Turkiston Xalq Komissarlari Soveti TIKning faoliyatini kuchaytirish maqsadida "Turkiston Respublikasi Iqtisodiy Kengashi haqida" Nizom qabul qilindi.

1921-yil — Turkiston Markaziy Jiroiya Qo'mitasining qozilik sudini tiklash to'g'risidagi dekreti e'lon qilindi.

1950-yil — Qoraqalpoq'iston Respublikasidagi Shumanay tumani tashkil etildi. U 1960-yil 5-fevralda Qo'ng'iroq va Xo'jayli tumanlariga qo'shib yuborildi. 1976-yil 9-yanvarda qayta tashkil etildi.

1954-yil — matematik olim, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi Vesvolod Romanovskiy (tavalludi — 1879-yil) vafot etdi. U Toshkent matematika maktabi asoschisi hisoblanadi. 1918-yildan umrining oxirigacha O'rta Osiyo universitetida professor bo'lib ishlagan.

1983-yil — yengil atletikachi, xalqaro miqyosdagi sport ustasi, "O'zbekiston iftixori" Leonid Andreyev tavallud topdi. U 2002-yilda o'n kurash bo'yicha jahon chempioni bo'lgan.

1990-yil — "Turonbank" aksiyadorlik tijorat birlashtiruv banki tarzida tashkil etildi.

1992-yil — kompozitor, sozanda, xonanda, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Matniyoz Yusupov (tavalludi — 1925-yil) vafot etdi.

1994-yil — Nukusda buyuk olim, mashhur astronom Mirzo Ulug'bek haykali ochildi.

1995-yil — O'zbekiston Respublikasi bilan Ruminiya Respublikasi o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatildi.

Yodnoma

Bonular ruhiga hamroz

Mashhur olim va adib To'xtasin Jalolov "O'zbek shoirlari" kitobida o'tmishda yashab o'tgan shoirlarimiz haqidagi hammabop ocherklari, asarlaridan namunalar keltirib, barcha ilm-adab ahli e'tirofiga sazovor bo'lgandi. Olimalarimiz orasida mumtoz fozilalarimizning hayot yo'li, ijodiy merosi haqida maxsus, fundamental tarzda tadqiqotlar yaratib, ularning merosini xalqqa yaxlit yetkazish borasida umri bo'yi zahmat chekkan ijodkor esa Mahbuba Qodirovadir.

Mahbuba Qodirova 1919-yili Toshkentda ziyoli xonadonida tavallud topgan. O'rta maktab tahsilini tugatgach, hozirgi O'zbekiston Milliy uiversitetining filologiya fakultetiga kirib, o'qishni davom ettirdi. Oliy dargohni tugatgach (1931), O'zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti aspiranturasiga doxil bo'ldi. 1961-yili Nodiraning hayoti va ijodiy merosi bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan Mahbuba Qodirova dastlab shu institutda stenoqrafist, so'ngra esa kichik ilmiy xodim, katta ilmiy xodim sifatida xizmat qildi.

1967-yildan e'tiboran Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Davlat adabiyot muzeyida katta ilmiy xodim, yetakchi ilmiy xodim bo'lib ishlagan Mahbuba Qodirova umrining oxirigacha (2002) Sharqning atoqli shoirlari Robia Balxiy, Zebuniso, Uvaysiy, Nodira, Dilshodi Barno, Saodatbegim, Mushtariy, Muslihabegim, Miskin, Anbar Otinlarining hayoti va merosini o'rganish bilan mashg'ul bo'ldi. XX asrning 60-yillardan boshlab olim Nodiraning o'zbek va fors tillaridagi merosini o'nlab dastxat sarchashmalari asosida o'rganib, dastlab "Nodira tanlangan asarlari"ni mukammal so'zboshi, izoh, ko'rsatkich, lug'atlar bilan nashr ettirdi. Eng muhimi

shundaki, kitobdan shoiraning hali keng ilm-adab ahliga ma'lum bo'lmagan turli janrlardagi tojikcha she'rlari ham joy olgan. Uni o'qigan kitobxon shoiraning ikki tilda barobar asarlar yaratara olgan san'atkor ekanligini tugal his eta oladi. Ana shu jarayonda olim Nodiraning har ikki tildagi she'rlarining janr, mavzu, timsollar silsilasi, g'oyaviy mundarijasini, ulardagi an'ana va o'ziga xoslikni, san'atkor badiiy mahoratini jiddiy tahlil qildi. Natijada bir necha yillik mehnat hosilasi o'laroq "Nodira hayoti va ijodi" monografiyasi yuzaga keldi. Keyinchalik kitob rus tilida ham nashr qilindi.

Ma'lumki, XIX asr shoirlari ijodida an'anaviy ishq-muhabbat mavzusining rang-barang, ayricha tasviri bilan birga bashardo'stlik, insondo'stlig-u ma'rifatparvarlik, ilm-hunar targ'ibi, inson sharafi singari yuksak g'oyalar tasviri yetakchilik qiladi. Filologiya fanlari nomzodi zakiy manbashunos Mahbuba Qodirova o'z tadqiqotlarida ana shu fanda hali mutlaqo o'rganilmagan sohaga alohida e'tibor qaratdi. Shu maqsadda bir qancha manbalarni kuzatdi: "Qoralar falsafasi", "Qo'qoniylar tarixi", "Sobit ul-bashar", "Tarixi muhojiron" singari hali mutlaqo o'rganilmagan yodgorliklarni tahlilga jalb etdi. Bir necha yillik izlan-



Arxiv surat

ishlar samarasi o'laroq olim o'zbek va rus tillarida o'nlab maqolalar yozib, soha jurnallari, ilmiy to'plamlar, "Adabiyot ko'zgusi" singari davriy nashrlarda chiqishlar qildi. Qomuslarga maqolalar yozdi. Faqat birinchi manbalardan topilgan yangi dalillar asosida yozilgan o'zbek va rus tillarida monografiyalar chop ettirdi.

1975-yili olim O'zbekiston Fanlar akademiyasi qoshidagi ixtisoslashgan ilmiy kengash majlisida "XIX asr o'zbek shoirlari ijodida inson va xalq taqdiri" deb nomlangan hamma zamonlar uchun ham o'ta dolzarb bo'lgan mavzuda doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli yoqladi. Kengash majlisida ishtirok etgan barcha soha donishmandlari muhokamada faol qatnashib, tadqiqotning faqat bir-lamchi manbalar asosida yaratilganini ta'kidlab, shu tizimdagi ishlarga qo'yiladigan barcha talablarga to'la javob beradi, deb bir ovozdin ma'qulladilar.

Ilmdagi bu katta yutuq yosh fan doktorining g'ayratiga-g'ayrat, intilishiga yanada rag'bat qo'shdi. Mahbuba Qo-

dirova adabiyot muzeyidagi ishlari bilan birga qo'lyozmalar tavsifi, kataloglar tuzishda yanada g'ayrat bilan ishlash qatori shoirlar ijodining yangi qirralarini o'rganish, toza dalillar asosida ilmiy maqolalar yozish, Nodira asarlarining yangi o'zbekcha va ruscha nashrlarini yaratishga erishdi. Bu sohada u rus tarjimonlari bilan yaqindan hamkorlik qildi. Shundan so'ng birin-ketin "Ey sarvi ravon", "Muazzamxon", "Dilshodning o'zbek tilidagi "Muhojirlar tarixi" asari", "She'riyat va muhabbat malikasi" asarlari nashr qilindi. Xuddi shu yillari olim yana Zebuniso, Anbar Otin, Dilshodi Barnolarning tanlangan asarlarini birinchi da'fa o'zbek va rus tillarida ommalashtirishga muvaffaq bo'ldi.

Umuman, zabardast manbashunos M.Qodirova butun faoliyatini XIX asr shoirlari asarlarini tahlil qilish va keng o'quvchilar ommasi e'tiboriga yetkazishga baxshida etgan ijodkordir. Uning Robiya Balxiy xususidagi tadqiqoti ham o'ziga xos bir ilmiy kashfiyot hisoblanadi. Shoirlarimizning mo'jaz sovg'abop shakldagi to'plamlarini nashr etishga ham M.Qodirova asos solgan.

Adabiyotimiz tarixining, xususan, o'zbek shoirlarining ijodi sehnini o'rganishda ulkan ishlarni amalga oshirgan manbashunos Mahbuba Qodirovaning fanimiz ravnaqi yo'lidagi xizmatlari davlatimiz tomonidan munosib taqdirlangan. Olima O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi (1974) unvoniga munosib topilgan, medallar, ko'plab Faxriy yorliqqa bilan sarafroz bo'lgan.

Hamidjon HOMIDIY

Ilm-u hayotdagi ustozim

Hayotda shunday ustozlar bo'ladiki, ulardan olgan bilimimiz nafaqat ilm yo'lida, balki hayot tarzimizda ham asqotadi. Bunday ustozlik sharafi va shogirdlik baxti kamdan kam uchraydi, desam ham mubolag'a bo'lmas. Garchi ular hayotdan o'tib ketsalar-da, otalik maslahatlari hamisha qulog'imiz ostida eshitilib turadi. Ustozim professor Husniddin Shohidoyatov ana shunday ulug' kishilardan biri edi.

2001-yili Toshkent farmasevtika institutini tugatib, ilmiy ish qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasiga qarashli akademik Sobir Yunusov nomidagi O'simlik moddalari kimyosi institutiga keldim. O'sha paytda institut direktori hamda Organik sintez bo'limi mudiri lavozimida ishlayotgan professor Husniddin Shohidoyatovga uchrashdim. Birinchi uchrashuvdayoq domla mening kelgusi rejalarim, oilaviy ahvolum haqida surishtirdi, keyin kimyodan bilimingiz yuqori bo'lsa qabul qilaman, deya rosa imtihon qilgandi. Shu vaqtda ustozning nazariy va amaliy organik kimyo, tabiiy va biologik faol birkimlar kimyosi sohalari bo'yicha bilimlariga havas qilganman. Imtihonlardan muvaffaqiyatli o'tib, ushbu institutga aspirant sifatida qabul qilindim.

Ilmiy ishimni olib borishda ilmiy rahba-



rim, professor Zeynulla Kuliyevalar bilan birga professor Husniddin Shohidoyatovning ham hissasi katta bo'ldi. Ustoz bilim va ilmiy tavsiya berish bilan birga hayot yo'llarimda ham maslahatchim, suyanchim bo'la oldi. Kamtarin ustoz shogirdning yaxshi-yomon kunida doim birga bo'lishga harakat qilardi. Farzandli bo'lganimizni eshitganida "Nevaralarim yana bittaga ko'payibdi-da", deya xursand bo'lardi.

Shogirdlariga, shu qatori menga tinmay mehnat va sermahsul ijod qilish kerakligini ta'kidlard. Ustoz doimo "Vaqtning qadriga yeting" deb ko'p aytardi va o'zi shunga amal qilishda o'nak ko'rsatardi. Dissertatsiyamni yozib, vaqtimgizga qarab, ko'rib bersangiz, desam ertasi kunioq chaqirib o'z taklifi va kamchiliklarimni tushuntirar

va bizga ham tez ishlashni uqtirardi. Shogirdlarining dissertatsiya ishlarini, ilmiy maqolalarini ish vaqtidan tashqari uyiga olib ketib, ertalabgacha to'g'irlab kelardi. Hattoki, davolanayotganida ham ko'rishga borsak, qaysidir shogirdning dissertatsiyasini tekshirib o'tirganiga ko'zimiz tushardi.

2012-yilning bahor kunlari poytaxtda doimiy propiska qilolmay, qiynalib ustozning oldiga kirdim va yurtim Xorazmga qaytib ketishimni, u yerdan ish topishga ko'maklashishini so'radim. Shunda ustoz biroz jim o'tirib, senga ish albatta topiladi, lekin biroz sabr qil, yaqinda hammasi yaxshi bo'lib qoladi, hali ilm kishilariga ham e'tibor beriladi, deb fikrimdan qaytargan edi. Oradan ko'p o'tmay yangi qaror chiqdi va men ham birinchilardan bo'lib poytaxtga doimiy ro'yxatga qo'yildim.

Jonkuyar, mehribon va fidoyi olim faoliyati davomida ko'plab yoshlarga ustozlik qildi. Uning bevosita rahbarligida 40 dan ortiq fan doktori va fan nomzodlari o'z ilmiy ishini himoya qilgan hamda hozirgi kunda respublikamizning turli sohalarda jamiyat rivojiga hissa qo'shib kelmoqda. Ustozimning sharaffi, ham mashaqqatli kasbini davom ettirayotganim bilan faxrlanaman.

Sobirjon NISHONBOYEV,
O'ZR FA O'simlik moddalari kimyosi
instituti katta ilmiy xodimi, kimyo fanlari
nomzodi

Ilhom chashmasi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutida qoraqalpoq adabiyotining ravnaqiga munosib hissa qo'shib kelayotgan shoira Gulistan Davletovaning ijodiga bag'ishlangan "Ilhom chashmasi" nomli ilmiy-amaliy anjuman o'tkazildi.

— Gulistan o'z ijodining eng gullagan pallasida turibdi, — deydi Qoraqalpog'iston Yozuvchilar uyushmasi raisi Kenesbay Karimov. — Uning she'rlari xalqimiz ko'nglidan joy olibgina qolmay, qo'shiqqa aylanib, adabiyotimiz va madaniyatimizni boyitmoqda. Fidoyi ustoz, adabiyot jonkuyari sifatida Gulistanning olib borgan ko'p yillik izlanishlari davlatimiz tomonidan yuksak baholani, shoira 2018-yili "Do'stlik" ordeni bilan taqdirlandi.

Anjumanda taniqli shoir-yozuvchilar, olimlar so'zga chiqib, shoiraning ijodiga munosib baho berdi.

Nesibeli MAMBETIRZAYEVA,
"Ma'rifat" muxbiri

UYQU UCHUN ENG XAVFLI HOLAT

Rossiya Sog'liqni saqlash vazirligi bosh kardiologi Valeriy Sadovoy uyqu uchun eng xavfli holat o'tirgan holatda uxlash ekanini aytmogda. Tadqiqot muallifi o'tirib uxlash ichki qon bosimini oshirib, yurak faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishini aniqladi, deb yozdi "RIA Novosti".

Mutaxassisning ta'kidlashicha, o'tirgan holatda uxlaydiganlar ko'pincha shishlardan aziyat chekadi va ularda qon-tomirlar kengayishi ko'proq kuzatiladi. Shuningdek, yonboshlab uxlash umurtqa pog'onasi va qorin bo'shlig'i uchun ham zararli. Demak, salomatlik uchun eng foydalisi — odatdagidek yotgan holatda uxlash bo'lib qolmoqda.

Mutaxassis maqolada kunduzgi uyquning foydali jihatlari haqida ham so'z yuritgan. Shifokorning aytishicha, kunduzi uxlashga odatlanish qon bosimini kamaytirib, insonning o'zini tetik his etishiga yordam beradi. Bunda sutkaning aniq vaqtida dam olish muhim emas, asosiysi — tiniqib uxlash.

Aslida, olimlar 2018-yildayoq insonlarni o'tirib uxlashning xavfli oqibatlaridan ogohlantirgan edi. O'shanda mutaxassislar bu odat orqa qism, bo'yin, bo'g'imlar va qo'l-oyoqlardagi og'riqlarni keltirib chiqarishini aytgan. Shu bois o'tirib uxlash, ayniqsa, homilador ayollarga tavsiya etilmaydi.



FANGA NOMA'LUM MIKROORGANIZM

Kanadagi Toronto universiteti olimlari mamlakatdagi Kilda konlaridagi suvda yashayotgan bir hujayrali mikroorganizmlarni aniqladi. Ma'lum bo'lishicha, ular atrofda turlarning suv bilan ta'sirlanishi natijasida paydo bo'lgan kimyoviy moddalar hisobiga yashab kelgan. Topilgan yangi mikroorganizmlar Yerda hayot qanday paydo bo'lganini tushunishga yordam beradi, deb yozdi "The Independent".

Tadqiqotchilar quyosh nuri va kislorod bo'limgan joyda bunday organizmlarning yashab qolishini temir disulfid(pirit) ta'minlagan bo'lishi mumkinligini taxmin qilmoqda. Bu esa bakteriyalarning alohida yerosti rezervuarlarida ham yashay olishi mumkinligini ko'rsatadi.

Hatto Yer yuzasi chuqurligida trilliondan ortiq bir hujayrali mikroorganizmlar bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

Yer ostida energiya miqdorining kamligi hisobiga mikroorganizmlardagi metabolizm jarayoni keskin sekinlashadi. Natijada ular ming yillar davomida hech qanday o'zgarishni boshdan kechirmay, tirik qolishi mumkin.

Olimlar Yer ostidan topilgan mikroorganizmlar va boshqa bir hujayralilar orasida qarindoshlik aloqalari bor-yo'qligini aniqlash maqsadida o'tkazilgan DNK-tahlil natijalarini to'plagach, yuqoridagi xulosaga kelgani ta'kidlanmoqda.

Iroda TOSHMATOVA tayyorladi.

Bektemirda shunday ustoz bor

Rahimjon Mamayunusov Bektemir tumanidagi 292-maktabda "Tasviriy san'at va badiiy grafika" to'garagi mashg'ulotlarini olib boradi. Bor bilimini iqtidorli bolalarga to'g'ri yo'nalish ko'rsatishga bag'ishlagan ustozning mehnat faoliyatiga bu yil 42 yil to'ldi.

— Bolalarning rasm chizishga iqtidori borligini sezmas, hech erinmay rassomlik sir-asrorini o'rgataman. Bolaligimda havaskor sifatida rasm chizib yurardim. Kunlarning birida tumanimizga mashhur rassom O'rol Tanziqboyev keldi. Men va tengdoshlarim chizgan rasmlarni ko'rib, yaxshi baho berdi. "Qobiliyatingiz bor ekan, tinmay mehnat qiling va qobili-

yatingizni rivojlantiring, ke-lajakda yaxshi rassom bo'lib yetishasiz", dedi.

Taniqli rassomning bu so'zlaridan keyin Rahimjon bor imkoniyatini ishga solib rasm chizma boshladi. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining badiiy grafika fakultetiga o'qishga kirdi. U yerda ustozlari — taniqli rassom Malik Nabiyev, Anvar Mirsoatov, Abdumomin

Boymatovdan ta'lim oldi. Universitetni tugatgandan buyon bolalar davrasida. Ularning qiziqishlarini ko'rib zavqlanadi, yutuqlaridan quvonadi. Shogirdlari bilan tabiat qo'yniga rasm chizishga tez-tez chiqib turadi. To'garakka qatnashgan o'quvchilari ko'plab ko'rik-tanlovlar, ko'rgazmalar g'olibi.

To'garak a'zolari 5-sentabrdan 5-oktabrgacha chizgan asarlardan 1-oktabr — O'qituvchi va murabbiylar kuniga sovg'a sifatida ko'rgazma tashkil etdi. Maktab o'qituvchilari bundan juda mamnun.

Asolat AHMADQULOVA

Hamon yoshlar davrasida

Favqulodda vaziyatlar vazirligi Yong'in xavfsizligi institutida iste'fodagi polkovnik, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi Ali Sirojiddinovning 70 yoshga to'lishi munosabati bilan ma'naviy-ma'rifiy tabdir bo'lib o'tdi. Ustozni tabarruk yosh bilan qutlash uchun yig'ilgan institut faxriylari va professor-o'qituvchilari uning uzoq yillik faoliyati hamda yoshlarga o'mak bo'ladigan fidoyiligi haqida to'liqlanib gapirdi.

Tadbirni ochgan Favqulodda vaziyatlar vazirining birinchi o'rinbosari general-mayor Abdulla Qo'ldoshev qutlug' yosh bilan ustozni muborakbod etib, uning ko'p yillik pedagogik faoliyatiga to'xtaldi. Harbiy xizmatchi oilasida tavallud topgan Ali Sirojiddinov salkam 40 yil davomida o'z kasbiga sodiq qolib, yurtimizga fidokorona xizmat qildi. Pedagog sifatida ko'plab yoshlarga ta'lim-tarbiya berish bilan birga, o'zi ham ezgu fazilatlar bilan ularga o'mak bo'ldi. Rahbarlik faoliyati davomida mamlakatimiz ilmiy salohiyatini yanada oshirish yo'lida uzoq istiqbolga mo'ljallangan qator nufuzli xorijiy oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlik aloqalari o'rnatishda sezilarli ishlarni amalga oshirdi. Ustoz 2008-yili Prezidentimiz farmoniga asosan fidoyi xizmat-

lari uchun "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi" faxriy unvoni bilan taqdirlandi.

Tadbir qatnashchilari nafaqaga chiqqaniga qaramay hamon yoshlarga bilim berib, kela-jak avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda o'zining munosib hissasini qo'shayotgan Ali Sirojiddinovga minnatdorlik bildirdilar.

Shundan so'ng Favqulodda vaziyatlar vaziri, general-leytenant Tursinxon Xudoyberganovning ustozga yo'llagan tabrigi o'qib eshittirildi va Ali Sirojiddinovga vazirlikning "A'lo xizmatlari uchun" ko'krak nishoni tantanali taqdim qilindi.

Farhodjon XOJAYEV,
Yong'in xavfsizligi instituti xodimi,
OAV bilan ishlash bo'yicha
katta inspektor, kapitan

reklama • e'lon • reklama • e'lon • reklama

Baqoyeva Gulbahor Matyoqubovnaning 08.00.07 — Moliya, pul muomalasi va kredit ixtisosligi bo'yicha "O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirishda derivativlarni qo'llash istiqbol-lari" mavzusidagi (iqtisodiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti va O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi huzurida-gi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.1.16.03 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 3-oktabr kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100000, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy.
Tel/faks: (71) 239-28-72, 232-01-49; e-mail: tdiu@tdiu.uz

Taylanova Shoxida Zayniyevnaning 13.00.01 — Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha "Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarida qadriyatlar tizimini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Ph.D.28.03.2018.Ped.02.05 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 12-oktabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy.
Tel/faks: (66) 239-12-29, 239-17-14;
e-mail: samdu_ped_kengash@umail.uz

Umurov Zarif Latifboyevichning 13.00.01 — Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha "Boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'limiy muammolariga oid didaktik shart-sharoit-larni takomillashtirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Ph.D.28.03.2018. Ped.02.05 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 12-oktabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy.
Tel/faks: (66) 239-12-29, 239-17-14;
e-mail: samdu_ped_kengash@umail.uz

Amanov Otabek Amankulovichning 08.00.10 — Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti ixtisosligi bo'yicha "Qishloq mehnat bozorini samarali rivojlantirish asosida aholining ish bilan bandligini oshirish" mavzusidagi (iqtisodiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.1.16.02 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 16-oktabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy.
Tel/faks: (71) 239-28-13, 232-60-22; e-mail: tdiu@tdiu.uz

Nazarova Sevara Mustakimovnaning 06.01.03 — Agrotuproq-shunoslik va agrofizika ixtisosligi bo'yicha "Buxoro vohasi sug'oriladigan o'loqi tuproqlarining hozirgi davr agrofizikaviy holati" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Tuproqshunoslik va agrokimyo ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Qx/B.43.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 9-oktabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100179, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Qamarniso, 3-uy.
28-, 34-, 10-avtobuslar yo'nalishining Tuproqshunoslar instituti bekat. Tel/faks: (71) 246-09-50; e-mail: info@soil.uz



TERMIZ SHAHRIDAGI 12-SONLI MEHRIBONLIK UYI

Ustoz – qadr-qimmatini yuksak zot. U insonga hayotning mazmun-mohiyatini anglatuvchi, qalblarga quyoshdek mehr nurlarini taratuvchi, ong-u shuurimizni ilm sarchashmalaridan bahramand etuvchi bebaho muallim. Ulug'likda otaga mengzaluvchi ustozlarga mudom ta'zimdamiz.

1-oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni

umumxalq bayrami bilan yurtimizdagi barcha ustoz va murabbiylarni chin dildan muborakbod etamiz!

Ko'zingiz va qalbingiz shogirdlaringiz erishayotgan zafardan quvonchga to'lsin. Barchangizga tansihatlik, ko'ngil xotirjamligi va kasbiy muvaffaqiyatlar hamroh bo'lsin!

Bayramingiz qutlug' bo'lsin, aziz ustoz va murabbiylar!

Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi,
O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,
O'zbekiston Ta'lim, fan va madaniyat xodimlari
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149, 150. G-929. Tiraj 11726.
Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan,
qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

qabulxona — (71) 233-50-55;
kotiбиyat — (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo'limi —
(71) 233-42-92 (faks), (71) 236-54-17.



"Ma'rifat" dan
materiallarni ko'chirib
bosish tahririyat
ruxsati bilan amalga
oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqdir
qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

MANZILIMIZ:

100083, Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.

Navbatchi muharrir: Zilola Madatova.

Navbatchi: Faxriddin Rahimov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.
Korxonaning manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

O'ZA yakuni — 22.30 Topshirildi — 00.45

1 2 4 5 6